

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



TARIX O'QITISH METODIKASI

**Tarix fanlarini o'qitishning
innovatsion muhitini loyihalashtirish**

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



TOSHKENT-2022



Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **t.f.n. A.R.Rahmatullayeva** - Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi" kafedrasini mudiri

Taqrizchilar: **Sh.Shoyoqubov** - Toshkent davlat Moliya instituti "O'zbekiston tarixi" kafedrasini mudiri, t.f.n.
X.Matyaqubov - Nizomiy nomidagi TDPU "O'zbekiston tarixi" kafedrasini, t.f.n.

Xorijiy ekspert: **t.f.n., dotsenti R.A.Xamidov** – akademik Bobojon Gafurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti.

O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. IShChI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	32
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	102
V. KEYSLAR BANKI	110
VI. GLOSSARIY.....	114
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	119



I. IShChI DASTUR

KIRISH

“Ta’lim to’g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021 - yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga muvofiq ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish hamda ular asosida pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Tarix o‘qitish metodikasi – bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyasini shakllantirish, ta’limning an’anaviy va noan’anaviy metod va usullari, shakl va vositalari, ta’lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari bilan qurollantirib, tarix ta’limi samaradorligini oshirishga, sifatli o‘qitishga hizmat qiladi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi tarixchi pedagoglarning metodik bilimlarga ega bo‘lishlari uchun va kasbiy faoliyatni tashkil etishda ulardan foydalanishga kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirishi talab etiladi. Tarix o‘qitish metodikasidan egallangan bilimlarni o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli foydalanishi, bunda tarixchi pedagogning ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tarix o‘qitish metodikasi o‘qituvchilarni ta’limning an’anaviy va noan’anaviy metod va usullari, shakl va vositalarini, ta’lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari bilan qurollantirib, tarix ta’limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarixchi pedagoglarning metodik bilimlarga ega bo‘lishi uchun va kasbiy faoliyatni tashkil etishda ulardan kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirishi talab etiladi. Tarix o‘qitish metodikasidan egallangan bilimlarni o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, bunda esa tarixchi pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda metodik faoliyatni tashkil etish, metodik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi tarixchi pedagoglarning metodik bilimlarga ega bo‘lishlari uchun va kasbiy faoliyatni tashkil etishda ulardan foydalanishga kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirishi talab etiladi. Tarix o‘qitish metodikasidan egallangan bilimlarni o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, bunda esa tarixchi pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy



faoliyatni tashkil etishda metodik faoliyatni tashkil etish, metodik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Tarix fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari, tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish, guruhlarni shakllantirish tamoyillari, guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi, Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari, zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish, pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

“Tarix fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulining vazifalari:

- tinglovchilarni Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari bilan tanishtirish;

- Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish., guruhlarni shakllantirish tamoyillari, guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi haqidagi bilim va tajribalarini yanada mustahkamlash;

- Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari bilan qurollantirish; - Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish uchun sinov topshiriqlarini tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish;

- tinglovchilarning mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda tarix ta'limidan nazariy va amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish, metodik bilim asosida o'quv mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli tashkil etish borasidagi ko'nikmalarining malakaga aylanishini ta'minlashdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Tarix fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- Innovatsion ta'lim, “pedagogik faoliyati bosqichlari;



- Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish;
 - Guruhlarni shakllantirish tamoyillari, guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi;
 - Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari;
 - Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish to'g'risidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;
 - o'quv dasturlarini yaratish; nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralash; tarix ta'limi uchun ma'lumotlarni samarali izlash; nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash; nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv topshiriqlari turlarini belgilash; tarix fanidan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish; o'quv topshiriqlari uchun ish qog'ozlarini hamma o'quv fanlari bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar uchun sinov topshiriqlarini tayyorlash;
 - tarix ta'limidan ilmiy va amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish;
 - ma'ruza mashg'uloti uchun mo'ljallangan matnning vizual xususiyat kasb etishi (o'quv axborotining grafik (sxema, jadval, diagramma, tasvir va b.) ko'rinishda bo'lishiga erishish **ko'nikmalarini egallashi**;
 - ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, reyting nazorati uchun keyslar va darajali testlar to'plamini shakllantirish;
- Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish **malakalarini egallashi**;
- metodik bilim asosida o'quv mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli tashkil etish;
 - talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda **kasbiy sifatlarini egallashi lozim**.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Tarix fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulini o'qitish jarayonida:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspres-so'rovlar, test so'rovlari, kichik guruhlarda ishlash, interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish metodikasi” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Tarix fanlarining taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari”, “Fanlarni o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar”, “Oliy ta'lim



didaktikasi” va “Pedagogik kvalimetriya” submodullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o’rni

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar tarix ta’limini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishda metodik bilimlardan va zamonaviy ta’lim imkoniyatlaridan to’laqonli foydalana olishga oid bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtiradi.

Modul bo’yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	O’quv yuklamasi	
			Nazariy	Amaliy mashg’ulot
1.	Innovatsion ta’lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta’lim tarix o’qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari	4	2	2
2.	Tarix fanlarini o’qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari. Guruhlarda hamkorlikda o’qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi	6	2	4
3.	Oliy ta’limda tarix fanlarini o’qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari	6	2	4
4	Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish.	6	2	4
Jami:		22	8	14

NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Innovatsion ta’lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta’lim tarix o’qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari

Innovatsion ta’lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta’lim tarix o’qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari. Oliy ta’lim tarix



o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati. Ta'limda innovatsion va texnologik yondashuvning mazmun-mohiyati.

2-mavzu: Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari.

Metodika, pedagogik texnologiya, interfaol usul tushunchalari.

Keys texnologiyasining mazmun mohiyati. Keyslarning turlari. Tarix faniga oid keyslarni ishlab chiqish.

Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha. Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari.

Tarix darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish va mustaqil ta'limni tashkil etish asosidagi innovatsion ta'lim usullar: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol darslar. O'zbekiston va jahon tarixi darslarida interfaol usullardan foydalanish bo'yicha o'quv topshiriqlarini tayyorlash.

Guruhlarni shakllantirish tamoyillari. Tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati.

Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasining mazmun mohiyati.

3-mavzu: Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari

Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari. OTMda tarixdan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari. Ma'ruza haqida va uning asosiy vazifalari, samaradorlik shartlari. Ma'ruza turlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari. Seminar mashg'ulotlarida ta'lim berish texnologiyasini loyihalash va rejalashtirish. Ma'ruza va seminar darslarini tashkil etishning didaktik asoslari. Amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, malakaviy amaliyot.

4-mavzu: Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish

Mustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadi va turlari. Tarix ta'limida mustaqil ishlarining mazmuni. Mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi.



AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Amaliy mashg'ulot: Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari

Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati. Ta'limda innovatsion va texnologik yondashuvning mazmun-mohiyati.

2-Amaliy mashg'ulot: Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari.(4.s)

Metodika, pedagogik texnologiya, interfaol usul tushunchalari.

Keys texnologiyasining mazmun mohiyati. Keyslarning turlari. Tarix faniga oid keyslarni ishlab chiqish.

Loyiha texnologiyasi haqida tushuncha. Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari.

Tarix darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish va mustaqil ta'limni tashkil etish asosidagi innovatsion ta'lim usullar: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol darslar. O'zbekiston va jahon tarixi darslarida interfaol usullardan foydalanish bo'yicha o'quv topshiriqlarini tayyorlash.

Guruhlarni shakllantirish tamoyillari. Tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati.

Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasining mazmun mohiyati.

3-Amaliy mashg'ulot: Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari.(4.s)

Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari. OTMda tarixdan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari. Ma'ruza haqida va uning asosiy vazifalari, samaradorlik shartlari. Ma'ruza turlarining o'ziga xos xususiyatlari.

Seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari. Seminar mashg'ulotlarida ta'lim berish texnologiyasini loyihalash va rejalashtirish. Ma'ruza va seminar darslarini tashkil etishning didaktik asoslari. Amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, malakaviy amaliyot.



4-Amaliy mashg'ulot: Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish.(4.s)

Mustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadi va turlari. Tarix ta'limida mustaqil ishlarining mazmuni. Mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi.

Modulning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishni quyidagi shakllardan foydalangan holda tayyorlash tavsiya etiladi:

- o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini chuqurroq o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- amaliy mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish.

1. Tarix o'qitish metodikasidan yangi adabiyotlar bilan tanishish va obzorini tayyorlash.

2. Tarix fanlari bo'yicha DTSni tahlil qilish.

3. Ilg'or ta'lim metodlari, texnologiyalar asosida o'quv topshiriqlar va taqdimot slaydlarini tayyorlash

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.




“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rovida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunining yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;



- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:


- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

“**DAVRA SUHBATI**” **METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi” ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

Davra stoli tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'oz beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.



“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

“BAHS-MUNOZARA” METODI - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib



etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.

4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.

5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



"FSMU" metodi

"FSMU" – (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- ✓ qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- ✓ har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;



F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni ko'rsatib isbotlang
U	• fikringizni umumlashtiring

✓ ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: "Tarix fanidan davlat ta'lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta'lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir".

1-Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

2-Topshiriq: Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



"XULOSALASH" (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish



shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



O'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Tarix fanidan Davlat ta'lim standarti			
Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:			



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni



shakllantirishga xizmat qiladi¹.

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlar

Namuna: Tarix o'qitishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Tarix o'qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Tarix o'qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Tarix o'qitishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	

Namuna: An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

S	Oddiy darsda o'qituvchi, o'quvchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular o'quvchilar ongiga singdirib beriladi
W	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi o'quvchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli o'quvchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli o'quvchilar qamrab olinadi
O	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalar tug'ilishi mumkin

¹ Stuart Gray. Information Technology in a Global Society for the IB Diploma: Black and White Edition. CreateSpace Independent Publishing Platform. United Kingdom, 2011. 316-p.



T	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, o'quvchi uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, o'quvchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari
----------	---	---



"Insert" metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda o'quvchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



“Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga



oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

Madaniyat

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat




“Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda o'quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.



Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:



O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

Namuna:

Tarix darslarida interfaol ta'lim usullaridan foydalanishning jihatlari	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
"Assesment"			
"Insert"			
"Tushunchalar"			
"Brifing"			
"Bahs-munozara"			
"Muammoli vaziyat"			



"Tushunchalar" metodi



Metodning maqsadi: mazkur metod O'quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili"

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Tarixiy manba		
Tarixiy adabiyot		
Tarixiy hujjat		
Tarixiy xarita		
Tarixiy surat		
Tarixiy fonogramma		
Tarixiy xat		
Tarixiy makon		


Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

"Muammoli vaziyat" metodi

"Muammoli vaziyat" metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

"Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. "Muammoli vaziyat" metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr

yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida "Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi keltirilgan.



"Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



"T-jadval" texnologiya

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo'shilsalar, birinchi ustunda "+" aks holda uchinchi ustunda "-" belgisini qo'yadilar.

Izoh:

O'qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va o'quvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach o'quvchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

O'quvchi:

- mavzuni diqqat bilan tinglaydi;
- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;
- reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi

"T-jadval" texnologiyasi

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
+ (ha, ijobiy) afzalligi (yutug'i)	- (yo'q, salbiy) kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

"Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish"

Afzalliklari	Kamchiliklari
"Qaytar aloqa" ning ta'minlanishi	ko'p vaqt talab etilishi



motivasiyaning yuqori darajada bo'lishi	o'quvchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o'tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob'ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi	o'qituvchining o'zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmasiga ega bo'lishining talab etilishi
o'z-o'zini va boshqalarni baholash ko'nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo'lishi
mustaqil fikrlash qobiliyatining oshishi	qaytar aloqaning ta'minlanmasligi
XULOSA	

T-sxema ko'rinishida vazifa

Ha	Fikr-mulohazalar	Yo'q
	O'zbekistonda "Tashselmash", "O'zbekselmash", "Krasniy dvigatel", "Pod'emnik" va boshqa zavodlar paxtachilikni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirildi.	
	1950 yil O'zbekistonda 2.220 ming tonna paxta tayyorlandi.	
	Sug'orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi.	
	XX asrning eng yirik ekologik - "Orol fojeasi" vujudga keldi.	
	O'zbekiston mamlakati paxta xom-ashyo bazasiga aylantirildi.	
	O'zbekiston "Oq-oltin"dan katta manfaat ko'rardi.	



“Blis-o‘yin texnologiyasi”

Sana va voqealarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.


Sanalar – 395, VI asr, 527-565, 534, VI asrning o'rtalari, VII asr, X-XI asr, IX-XI asrlar.



Tarixiy voqealar – Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga bo‘lindi, Konstantinopol, Yustinian I imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga jo‘natdi, Vizantiyaning zaiflashuvi slavyan qabilalari istilolariga yo‘l ochdi, Arab halifaligi hujumlari natijasida Suriya va Misr qo‘ldan ketdi, imperatorlar amaldorlar, ibodatxonalar va monastirlarga ko‘plab yer-mulklar in‘om etadilar, feodal munosabatlarning uzil-kesil o‘rnatilishiga olib keldi.

“Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya o‘quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.



Strategiya o‘quvchi (talaba)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



“Hamkorlikda o‘qitish” metodi

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi:



1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har o'quvchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'quvchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;

- axborot va "moddiy resurslar", ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan almashadi;

- o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi;

- bolalar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi;

- o'quvchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan o'quvchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi;

- bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar;



- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

- o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;
- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.²

Guruhda ishlash qoidalari:

- Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
- Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;
- Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;
- Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;
- Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.
- Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!
- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.

² Ганиева М., Файзуллаев Д. Кичик гуруҳларда ҳамкорликда ишлаш педагогик технологиялар тўплами. - Т.: Иқтисодиёт, 2013.



6. Guruh ishini baholang.

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsun, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

4. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

5. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat – yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi



1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.



III. NAZARIY MATERIALLAR

1-Mavzu: Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari

Reja:

1. Tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati
2. Ta'limda innovatsion va texnologik yondashuvning mazmun-mohiyati
3. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati

***Tayanch tushunchalar:** Ta'lim, tarbiya, ta'lim mazmuni, o'qitish uslublari, dars, o'qitish vositalari, innovatsiya, texnologiya, pedagogik texnologiya, interfaol ta'lim, an'anaviy ta'lim, pedagogik mahorat.*

1. Tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyati

Hozirgi kunda tarix fanlarini o'qitishning muhim muammolaridan biri bu - maqsadli ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Ushbu dolzarb masala xususida Prezidentimiz I.A.Karimovning "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb- hunar ta'lim muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida ilgari surilgan vazifalar bugungi kunda ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni maqsad qilib olinadi. Tarix fanini o'qitishda quyidagi innovatsion faoliyatga e'tibor berish tavsiya qilinadi:

Mashg'ulot vositalari

Pedagog uchun;

O'quv-metodik qo'llanma, metodik tavsiya, metodik ishlanma, o'quv dasturi, dars rejasi, ma'ruza matni.

Talaba uchun;

Darslik, o'quv qo'llanma, jadvallar, tarqatma materiallar, yo'l-yo'riqli texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi, topshiriq varaqasi, interfaol usullar.

Mashg'ulot o'tkazish uchun;

Plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual, texnik va real vositalar bo'lishi mumkin.



O'quv maqsadlari

Fanning o'quv maqsadlari tarmoq standartining har bir ixtisoslik bo'yicha kasbiy tavsifnomada keltirilgan kasb faoliyat turlari, maxsus talablar, ko'nikma va bilimlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi lozim, ya'ni tarmoq standarti bilan standartlashtirilgan o'quv dasturlari to'la mos kelishi kerak. O'qitishda o'quv maqsadlarini qo'yish uslubi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu talabalar harakatida ifodalanadigan va aniq ko'rinadigan natijalar orqali belgilanadi. O'quv maqsadlarini aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'llanishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.

Maqsadlarning qo'yilishi...

Umumiy maqsadlar - DS, o'quv dasturidan o'tiladigan mavzu yuzasidan talabalarda qanday bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhimligi aniqlashtirilib, shu asosida mashg'ulot maqsadlari belgilab olinadi.

Pedagog maqsadi;

1-ta'limiy mashg'ulot jarayonida talabalarda dunyoqarashni kengaytirish, bilish faoliyati, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

2-tarbiyaviy mashg'ulot jarayonida talabalarda mustaqillik, o'zaro munosabat, axloqiy yo'nalishlarni, mustaqil faollikka asos bo'luvchi motivlarni shakllantirish;

3-rivojlantiruvchi mashg'ulot jarayonida talabalarda diqqat, nutq, taqqoslash, refleksiya, aniq yechimlarni izlab topish ko'nikmalarini, mashg'ulotga nisbatan qiziqishni rivojlantirish bilan belgilanadi.

O'quv maqsadlarini aniqlashtirishning ahamiyati

O'quv maqsadlarini, ularni alohida qismlarga ajratib aniqlashtirish jahon pedagogikasida keng ommalashgan. Bunday yondashuvga asosan o'quv maqsadlariga erishilganlikni yaqqol aniqlash mumkin. Bunda o'quv maqsadlari tizimi yaratilib, o'zaro bog'liqlik ketma-ketligida joylashtiriladi, ya'ni ularning taksonomiyasi tuziladi. O'quv maqsadlarining bu tizimi xalqaro miqyosda mashhur bo'lib, Blum taksonomiyasi deb nomlanadi.

“Taksonomiya” tushunchasi grekcha - tartib bilan joylashtirish bo'lib, biologiya fanidan olingan. U obektlarni, ularning o'zaro bog'liqligiga asoslanib va toifalari murakkablashib boradigan ketma-ketlikda joylashtirib turkumlash va tizimlashtirishdir. Blum taksonomiyasini qo'llash, o'qitish maqsadlarini umumlashgan holda bayon qilish imkoniyatini beradi. Undan foydalanilganda pedagog maqsadlarni ajratadi va aniqlashtiradi hamda tartibga soladi. Bu taksonomiya yordamida pedagog nafaqat o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga, balki ularni o'zaro bog'liq bo'lgan qat'iy kema-ketlikda joylashtirishga muvaffaq bo'ladi.



O'quv maqsadlari sohalari

Kognitiv -bilishga oid soha. O'rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berish, o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil to'la anglash, ularni oldin o'rganilgan uslub, usullar bilan uyg'unlashtirilib tasavvur etishgacha bo'lgan muammolarni hal etilishini o'z ichiga oladi.

Affektiv-hissiyotga oid soha. Oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyat yo'nalish va munosabatlarini o'zlashtirishga tayyor bo'lish, talabalarni atrof-muhitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo'lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi.

Psixomotor-harakatga oid soha. U yoki bu harakat faoliyatida, harakat yo'nalishlarini tez o'zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi.

Talaba maqsadlari

Kognitiv o'quv maqsadlari sohasida – talabalar nazariy bilimlarni oladi.

Psixomotor o'quv maqsadlari sohasida – olgan nazariy bilimlarini turli mashqlarni bajarish orqali mustahkamlaydi.

Affektiv o'quv maqsadlari sohasida – ularda kelajakka umidvorlik hissi uyg'onadi.

3.Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi) larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o'rgatib kelingandi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi) larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. endi o'quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o'rniga darslarni tashkil etishga ma'suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma'suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o'zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta'limni tashkil eta oladigan o'qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalgam oshirishda asosan interfaol usublardan foydalaniladi.

Interfaol ("Inter"- bu o'zaro, "ast"- harakat qilmoq) - o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyatlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.



Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talabanning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;
- talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi ;
- pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

Nega o'qitamiz?

Nimani o'qitamiz?

Qanday o'qitamiz?

savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? - degan savolga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keladi.

Bunday fikrning tug'ilishi fanda yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.



Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabadan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim xayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsiyon jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Har bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.



Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi o'qituvchi va talabanning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, vosita, shaklga ya'ni texnologiyaga bog'liq.

O'qituvchi va talabanning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film(yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborat texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bular. Bularning hammasi o'qituvchi va talabalarga bog'liq.

2. Ta'limda innovatsion va texnologik yondashuvning mazmun-mohiyati

Yangi munosabatlarning o'ziga xos jihati an'anaviy ta'limdagidan farq qilib, o'quvchi-talabalarning mustaqilligi va o'quv faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda yo'llash, biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o'quvchi-talabalarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi va imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar to'plami tushunilib, qo'yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo'li, tadqiqot yo'li yoki biror faoliyatdagi ma'lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Pedagogik texnologiyani an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo ,maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta'limning umumiy maqsadlari (o'qituvchi va talabanning maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta'lim maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlarida o'tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Loyihalashtirish faoliyati o'quvchi-talabalar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shakllaridandir. Loyihalash metodi – o'qitishning tashkillashtirilishi bo'lib, o'quvchi-talabalar rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko'rinishida bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo'llash natijasida loyiha (proekt) ko'rinishidagi bilim o'zlashtiriladi.



O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarni hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Ular og'zaki, ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, faoliyatli yondashuvlardir.

O'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan ijobiy ishlashni talab etadi. Pedagog o'zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlar, ya'ni, nazariy-amaliy, o'quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Pedagog o'zidagi mavjud ma'lumot va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar hamda ilg'or o'qitish uslublarini ko'zlagan maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish vositalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo'naltira olish qobiliyatlari mavjud bo'lib, u davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo'llash rejasini ishlab chiqishga, ya'ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda ta'limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» pedagogga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab beradi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat, ya'ni:

- pedagogning ta'lim berish mahorati;
- pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta'lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxs fazilati;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik

mentalitetlar o'rnatilmoqda. Ta'lim tizimi yangi axborotlar bilan ishlash qobiliyati ijodiy yechimining ta'lim dasturini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Ta'lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibi bo'lib, o'quvchi-talaba bilan o'qituvchi (pedagog) ning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo'lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o'quvchi-talabaning yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;
- o'rtacha o'quvchi-talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- o'quvchi-talabaning tashqi motivasiyasidan ichki ma'naviy tartibga o'tish.

Ta'limda zamonaviy didaktika va ta'lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g'oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o'tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o'qitish texnologiyalari o'rtasida bog'liqlik, amaliyotda davlat ta'lim tizimining yangi shakllarining aprobatsiyasi, hozirgi zamon sharoitida o'tmishning pedagogik tizimlarini qo'llash muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya paydo bo'lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar o'rganiladigan ta'lim tizimi doirasida aynan ta'lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo'shliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o'quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o'rin qoldirgan holda to'ldiradi. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarining tashxisli tekshiruvini o'quv jarayonining barcha qirralarini qayta ishlab chiqish davriga mujassamlashtirish imkonini yaratadi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchi-talabalarining bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o'quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog'lanish asosida zudlik bilan ta'lim jarayoniga tuzatish kiritish bo'lishi lozim);
- natijani baholash.



O'quv maqsadlarining to'liq standartlashtirilishining meyorlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- a) yuqori, ammo mutlaq emas;
- b) mutlaq.

Birinchi holatda maqsadning murakkabligi tufayli uni to'liq kuzatuvchan xatti-harakatlar turiga aylantirish imkonini bermaydi, davr to'laligicha qayta ishlab chiqilmaydi. Ikkinchi holatda konveyrli jarayon bo'lgan ta'limning reproduktiv turi bilan ish yuritiladi.

O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihati – o'quv jarayonining so'nggi natijalariga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikatsiyalangan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlari taksonomiyasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- yerishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. O'qituvchi (pedagog) o'z oldiga o'quvchi-talabalar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib, ma'lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi. Pedagogik maqsadga erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo'lgandagina, o'qituvchi (pedagog) o'zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo'yicha o'qituvchi (pedagog)lar tomonidan maqsadlarni belgilashning o'ziga xos usullari quyidagicha:

1. O'quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni o'qituvchi (pedagog) faoliyati orqali aniqlash.
3. O'quvchi-talabaning intellektual, emotsional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari va qonuniyatlari orqali o'quv maqsadini qo'yish.

O'qitishning maqsadi ta'lim mazmuni, o'qituvchi (pedagog)ning yoki o'quvchi-talabaning faoliyati orqali belgilash ta'limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo'lishga imkon bermaydi.

Umuman olganda, ta'lim jarayonida vazifalarni o'lchash, aniqlash, o'qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya'ni ta'lim maqsadi shunday qo'yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin.



Mashg'ulot mazmuni deganda, talaba o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi hamda xarakteri tushuniladi. Mashg'ulot mazmunini loyihalashga kirishilganda pedagogik tizimning birinchi elementi - maqsad bilan o'zaro farqlanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

Pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, uning talabalar o'rganishi lozim bo'lgan ro'yxati keltiriladi va ular mashg'ulot maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi. Mashg'ulot mazmunini saralashda ma'lumotlarning umumiy hajmidan asosiy qismi ularga yetkaziladi. Dasturda mashg'ulot materiallari tushunarli tarzda berilishi muhim. Buning uchun u ma'lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada "oddiydan murakkablikka" qoidasi mavjud. Bu qoidaga mashg'ulot mazmunini izchil va ketma-ket yoritishda rioya qilinadi.

Dastur o'qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jihatdan qanday bo'lish kerakligini, talabalarda dunyoqarashning qaysi qirralarini shakllantirish zarurligini ko'rsasa, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi. Mashg'ulot mazmuni ma'lum qonuniyatlar asosida didaktik tayyorlanmas ekan, uni belgilagan vaqt davomida egallash murakkab kechadi, ba'zan bu mazmun talabalarning o'zlashtirish qobiliyatiga mos kelmay qoladi. Shuning uchun ularning bilimlarni egallashini osonlashtirish maqsadida mashg'ulot mazmuniga nimadir kiritish yoki pedagogik texnologiya to'plagan boshqa bir usullarni taklif etish kerak bo'ladi.

3. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari.

Ta'limda moddiy ba'za, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi.

Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratilmog'i talab etiladi.

Yendi **ta'limni individuallashtirish** nima? Degan savolga javob beraylik:

- ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shishi hisobga olinadi;
- ta'lim jarayonini tashkil eishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;
- o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi.



• Individual yondashuv nima?

1. Guruhlarda ishlaganda, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etganda har bir o'quvchi bilan yakkama-yakka ishlaganda ularning shaxsiy xususiyatlari doimo o'qituvchi diqqat markazida turmog'i, hisobga olinmog'i kerak.

2. O'quvchi bilan muloqot olib borganda ham, uning o'ziga xosliklari diqqat e'tiborda tutilishi kerak.

3. Ta'lim jarayonida ham, uning qobiliyati, imkoniyatlari nazarda tutilishi kerak.

4. Pedagogik psixologik jarayonlarni olib borishda o'quvchining shaxsiy rivojlanish darajasini ko'zda tutish zarur.

Individuallashtirish ta'lim prinsiplari:

- Individuallashtirish - O'quv jarayonining bosh strategiyasidir.

- O'quv jarayonini individuallashtirish orqali shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi.

- Har bir o'quv predmetini o'qishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi.

O'qitish shakllarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi.

- Individuallashtirish ta'lim o'quv jarayoni sifat va samaradorligini ta'minlaydi.

- Individuallashtirish ta'limda ko'nikma, malaka, bilim olish o'quvchining qiziqishi asosida kechadi.

- Mustaqil ishlay olish o'quvchining umumo'quv ko'nikmasini rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi.

Demak, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligi o'quvchining o'quv mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil mutolaa bilan samarali shug'ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog'lik.

Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko'rsatish mumkin.

• O'quvchi o'qitilmaydi, uni mustaqil o'qish, o'rganish ishlashga o'rgatiladi.

• Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o'zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o'rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o'z pozitsiyasini himoya qila olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

• O'quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali uning bilim olish malakasi shakllantiriladi. Olgan bilimlari orqali ijodiy mushohada yuritish, imkoniyati yaratiladi. O'quvchini darsliklar bilan ishlash, o'qish, o'rganish, konspekt yozish, qo'shimcha adabiyot, spravochniklardan foydalanib mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini egallashga o'rgatiladi.



- Sinfdagi barcha o'quvchilarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi. Bunda o'quvchining o'zlashtirganligi olgan bilimlarini hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

- Barcha o'qituvchi-o'quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o'rganib, uni o'z o'quv-biluv faoliyatlariga olib kira olsalar barcha o'quvchilar bir xil natijalarga erisha oladilar.

- Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

1. O'quvchining o'zaro faolligi oshadi, hamkor, ijodkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

2. O'quv reja, dastur, darslik, standart meyor, qo'llanmalar, mavzu mazmuni bilan ishlash malakalari shakllanadi.

3. Ta'lim mazmunini, matnini mustaqil mutolaa qilish, ishlash, o'zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

4. O'quvchi erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

5. eng muhimi o'quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. Ya'ni o'quvchining ehtiyoj, xohish, istagi qondiriladi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchining manfaatdorligi oshadi. Bu holat o'quvchini o'quv maqsadlariga erishishda yuqori bosqichga ko'taradi.

Darsni interfaol metodlarda tashkil etishning qanday afzalliklari mavjud:

- O'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

- O'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi;

- O'qish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh,, katta guruhlar).

- O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

- O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materialiy yaxshi esda qoladi.

- O'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi.

- O'quv jarayonida - o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

- O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.

- Har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

- Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham



rivojlantiradi. Albatta, interfaol darslarni tashkil etishning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud.

1. O'quv-biluv jarayoni ko'plab vaqt sarflashni talab qiladi.

2. Interfaol mashg'ulotlarda barcha o'quvchilarni kerakligicha nazorat etib borishning imkoniyati bo'lavermaydi.

3. Juda murakkab materiallar o'rganilayotganda o'quvchilar muammoni to'laqonli, aniq yecha olmaydilar, bunday sharoitlarda o'qituvchining roli past bo'lishi hollari kuzatiladi.

4. Guruhlarda o'quv jarayoni kechayotganda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroki tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki baho olish hollari kuzatiladi.

Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga o'zi zamin yaratishdan boshlash kerak.

Ya'ni o'quvchi:

- O'zi mustaqil mutolaa qilish, o'qish asosida bilim olishga;
- O'zini-o'zi anglab yetishga, anglab tarbiya topishga;
- O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- O'quv mehnatiga mas'uliyat hissi bilan qarashga;
- O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, har bir minutni g'animat bilishga;
- O'quv mehnatiga o'zida xohish-istak uyg'ota olishga;
- Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;
- Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur.

Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quvchining o'z-o'zini rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogika, didaktika fani oldida o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

Keyingi vaqtlarda o'qituvchilar orasida shaxsga qaratilgan ta'lim nima, interfaol usulda o'qish nima uchun zarur? Bu usul qachondan o'quv jarayoniga kirib kelgan? Uning qanday turlari mavjud? Tarkibiy tuzilishi qanday? Uni o'quv jarayoniga qanday olib kirish kerak, uni avvalgi usullardan farqi nimada kabi savollarga duch kelamiz.

Buning uchun shu kunlarda maktablarimizda olib borilayotgan an'anaviy darslarni yana bir marotaba eslab o'tish joizdir. An'anaviy o'qitish XVII asrda Chex pedagogi **Yan Amos Komenskiy** tomonidan taklif etilgan.



U o'qishning yagona klassik tizimini ishlab chiqib, uni sinf - dars sistemasi deb yuritadi. Keyinchalik bu sistema pedagogikada keng tarqalgan. An'anaviy maktab sinf-dars tizimi nomini olish u quyidagicha o'ziga xos an'analarga ega:

- Taxminan bir xil yoki yaqin yoshli bolalar tayyorgarlik darajasi yaqin bolalar sinfini tashkil etadi.

- Sinf yagona reja, dastur, dars jadvali asosida ishlaydi.

- Asosan mashg'ulot turi yagona dars hisoblanadi.

- Dars ma'lum o'quv predmeti, temaga bir xil material ustida ishlaydi.

- O'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshqaradi, har bir o'quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o'quvchini sinfdan-sinfga ko'chirishni ham u hal qiladi.

- Darsliklar asosan uy ishini bajarishda, uyda qo'llaniladi.

An'anaviy dars sxemasi quyidagicha ko'rinishga ega.

Yangi mavzuni —> Mustaxkamlash — Nazorat — Baholash - O'rganish

An'anaviy darsning konseptual holati

- Ilmiylik

- O'quvchi tabiatiga mosligi

- Ketma-ketlik, tizimliliigi

- Tushunarliliigi

- Ko'rgazmalilik

- Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, amalda qo'llay bilish.

An'anaviy darsning kamchiliklari:

- Darsning bir qolipdaligi, bir xilligi;

- Boshlang'ich ma'lumot berilib, uni o'zlashtirish jarayoni uyiga reja, vazifa orqali amalga oshadi;

- O'quvchilar passiv eshituvchi va mustaqilligi yo'q.

- O'quvchilar bir-biri bilan fikr almashadilar, nutqiy fikr almashuv amalga oshmaydi;

- Qayta aloqalar yo'lga qo'yilmaydi;

- Har bir faoliyat o'rtacha o'quvchiga yondashuv asosida kechadi;

- Ta'lim mazmuni asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muommolari nimalardan iborat?

2. O'quv jarayonida yangilangan dastur va standartlarga javob beradigan zamonaviy darslarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad nima?

3. Interfaol darslarni tashkil etishda o'qituvchining vazifasi nimalardan iborat?



4. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda yuzaga keluvchi: Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? kabi savollarga to'liq ravishda qanday javob berish mumkin?

5. Pedagogik texnologiya asosida o'tilgan darslarni ana'naviy darslardan ustunlik jihatlariga to'xtaling?

6. Ta'limni individuallashtirishda qanday jihatlarga ahamiyat qaratiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: 2008.

2. Axmetova K.I., Fayzullaeva D.M., Xoshimova D.P. «Oliy o'quv yurtida innovatsion ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish, rejalashtirish va uni amalga oshirish» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan trening mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi: Uslubiy qo'llanma /«Iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. - Toshkent: TDIU, 2010. - 80 b.

3. Fuzailova G.S, Rahmatullaeva O.R. Tarix fanini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. – T., TDPU, 2012.

4. Ganieva M., Fayzullaev D., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.

5. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. ekspress qo'llanma. - Toshkent: TESIS, 2001. - 38 b.

6. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. - 206 b.

7. Golish L.V., Xashimova D.P. “Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” treningining o'quv-metodik materiallari. – Toshkent: TDIU, 2014. – 80 b.

8. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomndagi TDPU, 2009.

9. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013.– 279 b.



2-Mavzu: Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari.

Reja:

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlari
2. Keys-stadi (Case – stadi), hamkorlikda o'qish, loyiha texnologiyalari.
3. Interfaol usullar haqida tushuncha
4. Tarix ta'limiga interfaol usullarni joriy etish

Tayanch tushunchalar: *an'anaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, hamkorlikda o'qish, keys-stadi, loyiha texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, case – stadi texnologiyasi, loyiha texnologiyasi innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol ta'lim usullari, an'anaviy usul, "juftlikda o'yla, ishla, fikr almash", blis-so'rov, konseptual jadval, pinbord, klaster, toifali jadval, T-jadvali, kichik guruhlarda ishlash, munozara, debat.*

*"Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi,
yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi"*
A.F.Disterveg – nemis pedagogi

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va uning aspektlari

Buyuk faylasuf Konfutsiyning: "Men eshitaman va unutaman, men ko'raman va eslab qolaman, men bajaraman va tushunaman", - degan fikri ayniqsa hozir ta'limda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda o'quvchi ko'z bilan ko'rib, o'zi mustaqil bajargandagina, mavzuning mazmuni va mohiyatini to'liq anglashi mumkin.

"Texnologiya" so'zi fanga 1872 yilda kirib kelgan va yunoncha «*techne*» so'zidan olingan bo'lib, *mahorat, san'at, malaka, "logos" esa - so'z, ta'limot* ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab bera olmaydi, texnologik jarayon deyilganda-mehnat qurollari bilan mehnat vositalariga ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish bo'yicha qilingan mehnat va jarayonlar tushuniladi. Demak, bu ta'rifni turlicha sharhlash mumkin, bunda: pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta'riflasak ham xato bo'lmaydi. Rivojlanayotgan xorijiy davlatlarda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaga ta'lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YuNESKO tomonidan ham ma'qullandi va 1972 yilda "Ta'limni rivojlantirish masalalari" bo'yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi. Bu komissiya zamonaviy texnologiya-ta'limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir,- deb baholadi.



XX asr 30-yilning o'rtasida AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko'rish (audiovizual) ta'limi bo'yicha ma'ruzalar o'qilgan, 1946 yil shu yerning o'zida eshitish va ko'rish ta'limi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko'rish vositalarini ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo'llab o'quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi. Bu jarayon **“ta'limda texnologiyalar”** deb nomlandi. Keyinchalik “ta'lim texnologiyasi” o'rniga “dasturlashtirilgan ta'lim” atamasidan foydalanish keng yoyildi.

Ta'lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi

Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish

So'ngra pedagogik texnologiya - loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi. Faqat 1970-yillardan boshlab pedagogik adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlanib, ta'lim texnologiyasining ilmiy asosini informatika, telekommunikatsiya nazariyasi, pedagogik kvalimetriya, tizimli tahlil, bilish faoliyatini boshqarish nazariyasi, o'quv jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish kabilar tashkil qildi. Ko'rish va eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadroproektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalardan foydalanish ko'zda tutildi.

1980-yillarda pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi. Ko'rinib turibdiki, qator yillar davomida pedagogik texnologiyaga o'quv jarayonini texnik vositalar yordamida amalga oshirish, deb qarab kelindi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda

shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hoidisani pedagogik texnologiya, desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiiq etish va aniqlashning izchil metodi (YuNESKO).

XXI asrning boshlarida bu ta'rif yana o'zgarib, pedagogik texnologiyaning - berilgan yoki mavjud sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llarini ongli loyihalash, deb qayd etilmoqda. Demak, texnologiya sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim jarayoniga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

- Sifat, ya'ni aniq, ma'lum ta'lim darajasini olish;
- Ommaviy, ya'ni, talab etilayotgan ta'lim darajasiga bir vaqtni o'zida ko'p sonli talabalar erishishlari lozim;
- Samaradorlik, ya'ni, ta'limga sarflanayotgan harajatlar eng ko'p samara berishi zarur.

Bu vazifalarni hal etish ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etishga olib kelmoqda

“Ta'lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanish bosqichlari

No	Bosqichlar	Yillar	Ta'lim texnologiyasi
1	I- bosqich	XX asrning 30 yillari	TT= Ptex O'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi (pedagogik texnika – Ptex)
2	II- bosqich	XX asrning 50 yillari	TT=Ptex. + TV Ta'lim jarayonida texnik vositalar (TV)ni qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish, ularni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, talaba faoliyatini individuallashtirish
3	III- bosqich	XX asrning	TT = Ptex. + TV + dasturiy ta'lim (DT) Dasturiy ta'lim – ta'lim maqsadlarining aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy



		60-80 yillari	loyihalash, talabalar tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashhishlash, ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish
4	IV-bosqich	Mustaqillik yillari	Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalarga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lishi bilan birga, quyidagi aynan o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham ega:

1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili ikki jihatni o'zida aks ettiradi: 1) ta'lim, tarbiya hamda shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogik texnologiyaning muayyan, qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2. Asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish ob'ekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi. O'quv fanlari tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar tarzida turkumlashtirilgan. Har bir o'quv fani uning uchun "yadro", "o'zak" sanaluvchi axborotlarga ega bo'lib, ushbu axborotlar shaxs tomonidan fanlar asoslarining o'rganilishi, aniq mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim olish, o'zlashtirilgan bilimlarni kengaytirib borish yo'lida tayanch tushunchalar bo'lib xizmat qiladi.

Bunday yondashuv ma'lum yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida fanlararo aloqadorlik xususiyatidan foydalanish imkonini ham beradi. O'quv fanlarining muayyan yo'nalishlar tarzda birlashtirilishi shaxs xotirasiga nisbatan zo'riqishni kamaytiradi, shuningdek, fikrlash quvvatini oshiradi, tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

XX asrning 80-yillarida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarga mavjud fanlar sohalari bo'yicha oz-ozdan ma'lumot (bilim) berishdan iborat deb talqin etilgan bo'lsa, 90-yillarda ushbu jarayonning tashkil etilishi o'zlashtirilgan bilimlar negizida muayyan, aniq fan bo'yicha yangi ma'lumot (bilim)larga ega bo'lish uchun qulay sharoitni yaratish jarayoni sifatida e'tirof etildi.



3. Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili nemis pedagogi A. Disterveg tomonidan XIX asrda iste'molga kiritilgan bo'lib, bugungi kunga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Madaniyatni anglash tamoyili talabalarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi. O'tgan asrda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omil sifatida pedagogning bilim darajasi va mahorati e'tirof etilgan bo'lsa, bugungi kunda o'qituvchining bilimi, salohiyati hamda mahoratining yuqori darajada bo'lishi bilangina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib bo'lmasligi barchaga ayon. Mazkur o'rinda zamonaviy fan va texnika imkoniyatlari, xususan, kompyuter, multimediyaviy vositalari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining e'tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Endilikda mutaxassislar "soha (yoki yo'nalish)larning o'ziga xos jihatlari, bu boradagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqur bilishlari, muayyan faoliyatlarni bajara olishlari, belgilangan muddatda aniq vazifalarni hal etishga ulgurishlari hamda ma'lum yutuqlarga erisha olishlari" g'oyasi yetakchi o'rin tutuvchi bozor munosabatlari sharoitiga puxta tayyorlanishi lozim.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili. Tilga olingan har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan (yunon. "humanus" – insoniylik, "humanitas" – insoniyat), bir o'zakka ega bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi.

Insonparvarlashtirish ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, **insoniylashtirish** tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, **insonparvarlashtirish** – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo'lsa, **insoniylashtirish** "barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun" degan g'oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashtirishda har bir o'qituvchi ushbu tamoyilga qat'iy amal qilishi lozim yoki o'z mutaxassisligiga oid muammolarni hal etishda uni jamiyat manfaatlari bilan uyg'un bo'lishiga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Endilikda pedagog talabalar faoliyatini avtoritar (yakka hokimlik) tarzida boshqarmay, balki ta'limiy hamkorlik g'oyalariga sodiqlik asosida ta'lim jarayonini insoniylashtiradi yoki boshqacha aytsak, ta'limni insoniylashtirish tamoyiliga amal qilinishini ta'minlaydi. Ushbu holat o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

5. O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi: 1) ta'lim muassasalarining har bir o'qituvchisi o'z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim; 2)



o'qituvchi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko'radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya'ni, u ta'lim jarayonini tadqiq etadi.

O'qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo'lajak mutaxassislik faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

6. Ta'limning uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari, mavjud sifatlarning hayotiy faoliyat davomida takomillashib borishini nazarda tutadi. Shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh-o'n yil mobaynida o'zgarib, mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan talabalarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

7. Faoliyatli yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Bilimlar faoliyat jarayonida mustahkamlanadi, shu sababli talabalarda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish iqtidorini tarbiyalash lozim. Amaliyotdagi tadbqiqiga ega bo'lmagan bilimlar tez orada unutilib yuboriladi.

An'anaviy ta'limning afzalliklari:

- ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali;
- o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;
- vaqtdan unumli foydalanish;
- aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

An'anaviy ta'limning kamchiliklari:

- o'quvchilar nafaol ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- o'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir-xil bo'lmaganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- mustaqil o'rganish va yechimlar qabo'l qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.


Zamonaviy (noa'anaviy) ta'limning afzalliklari:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z vaqtida qaytar aloqalarning ta'minlanishi;
- tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- o'quvchilarning fanga oid mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;
- mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi;
- nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi;
- muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Zamonaviy (noa'anaviy) ta'limning kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etilishi;
- o'quvchilarni har doim ham kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
- juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;
- o'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

O'QITISH PIRAMIDASI





Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda quyidagilar hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan:

1. Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligi.
2. Ta'lim korxonalarini va professional ta'lim dasturlari turlarining xilma-xilligi, ularning fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlaridan foydalanish.
3. Professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirish.
4. Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik bazasini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash.
5. Professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb ettirish.
6. O'quv jarayonini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish.
7. Kadrlar tayyorlashning sifat bahosini va ob'ektiv nazorat tizimini qo'llash.
8. Shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat intellektini baholash va kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarish.
9. O'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoya qilish.

2. Keys-stadi (Case – stadi), hamkorlikda o'qish, loyiha texnologiyalari

“Case” so'zi, lotincha “casus”- “voqea, hodisa” so'zidan kelib chiqqan va keyinroq inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi – ta'lim ta'lim co'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim texnologiyasidir. Bunda muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Boshqacha aytganda, bu tushuncha hayotda yuz beradigan qandaydir voqea yoki hodisani, aniq bir vaziyatning tafsilotini anglatadi.

Keys – stadi (aniq bir holat yoki vaziyat), muayyan jarayonida sodir bo'ladigan haqiqiy voqelikni so'zlar, raqamlar, obrazlarda ifoda etishda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu ifoda ta'lim sohasida, hodisa yoki vaziyatni tadqiq etish uchun ishlatiladigan axborot, stenografiya sifatida qo'llaniladi. Keys-stadi hodisa yoki vaziyatni oddiy tafsilotidan farqli o'laroq, u o'quv materialini o'zlashtirish uchun ko'maklashuvchi axborotni o'z ichiga oladi, bunga duch kelgan muammoni aniqlash va uning yechim yo'llarini izlash orqali erishiladi. Keys-stadi, muayyan o'quv maqsadli bilim olish vositasi sifatida ishlab chiqilishi zarur. Ushbu maqsadlar keng

ko'lamli bo'lib, axborotlar, ma'lumotlar yoki tafsilotlar bilan ta'minlanishini nazarda tutadi, ular muayyan qarashlar yoki usullarni namoyish etishda qo'llanilishi mumkin.

Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzda yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys-stadi metodining asosiy kategoriyasi bu "tahlil (analiz)"dir. Tahlil etish kategoriyasi ob'ektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin.

Analizning turli tasniflari mavjud bo'lib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilash mumkin: tizimli analiz, korrelyatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar.

Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

O'quvchilar tomonidan keysni yechish texnologiyasi:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha *individual (auditoriyadan tashqari)* ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan *birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada)* ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish

O'quvchi mustaqil ravishda:

- keys materiallari bilan tanishadi;
- taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;
- muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,
- vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;
- ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;



- taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlash

- O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi;
- guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;
- muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

muammoli vaziyat yechimining o'z variantini taqdim etadi;
tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;
boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustida ishlash:

guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarini muhokamasi;
taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi.

Taklif etilgan yechimlarning xayotiyiligi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (o'quvchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

O'qituvchining harakatlarini izchilligi:

- o'qituvchi mashg'ulot mavzusi va maqsadini ma'lum qiladi;
- o'quvchilarning prognoz qilinadigan ta'limdagi yutuqlari ro'yxatini e'lon qiladi;
- o'quv mashg'ulotining tartibi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;
- o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari e'lon qiladi;
- o'quvchilarda bo'lg'usi o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keysning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntirib beradi.

• o'quvchilarning o'quv mavzusi kursi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blis-so'rovnoma yoki savol-javob shaklida o'tkaziladi.

Keys bilan shundan keyingi ish quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- ish o'quv rejasiga ko'ra ajratilgan vaqtga,
- keys o'lchami va uning maqsadlari,
- tanlangan ta'lim modeliga,
- o'quv mashg'ulotining loyihalashtirilgan texnologik chizmasiga
- rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan belgilanadi.



- Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.
- Keys bilan jamoa bo'lib ishlashni tashkil qiladi: o'quvchilarga aqliy hujum o'tkazishni taklif qiladi – keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi

O'quv mashg'ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi

O'qituvchining harakatlarini izchilligi:

- mavzu bo'yicha xulosa chiqaradi, o'quvchilar e'tiborini asosiy jihatga qaratadi;
- bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so'zlaydi;
- guruhlar, ayrim o'quvchilar faoliyatini baholaydi o'zaro baholashlarga yakun yasaydi;
- o'quv mashg'uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

Shuningdek, keys-stadi metodi o'zida quyidagi afzalliklarni va boshqa o'qitish metodlaridan ajralib turuvchi jihatlariga ega:

- 1) u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim modelining mavjudligi hamda ushbu model holatining muayyan vaqt birligi ichida tahlil etilishi;
- 2) muammo yechimini aniqlashga jamoaviy tarzda erishish. Muammoning yechimida turli muqobil javoblarning mavjudligi. Yagona yechimning mantiqan mavjud emasligi;
- 3) muammo yechimini izlashda yagona maqsadning qo'yilishi;
- 4) Faoliyatni baholashning guruhli tizimining mavjudligi.

Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi:

- 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar;
- 2) aniq vaziyat bayoni;
- 3) keys topshirig'i.

Keysning hujjatlashtirish haqida ma'lumot

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzdagi in'ikosidan iboratdir. Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat sub'ektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Keysning ilmiy pasporti tayyorlanadi va unda albatta ilmiy pasport tayyorlaniladi. Maqsadning qo'yilishi.

- Keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rnini belgilash.
- Uning ta'lim maqsadini to'liq ifoda etish.



□ Keysning talabalarning ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun «mas'uliyat zonasi» ni aniqlash:

o'zlashtirilishi/kengaytirilishi rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati.

Muammo qandaydir harakatlar qilish uchun yetilgan zarurat bilan uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yetishmasligi o'rtasidagi ziddiyatning amal qilishi va ifodalanishi shaklidan iboratligi sababli muammoning ifodalanishi ana shu ziddiyatni belgilanadi.

«Keys-stadi» texnologiyasidan ta'lim natijalarini nazorat qilish va tekshirishda ham foydalanish mumkin. Har bir o'quvchiga imtixonidan oldin individual keys beriladi. O'quvchilar keysdagi topshiriqlarni bajarib, hisobot shaklida o'qituvchiga topshiradilar.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda har xil turdagi keyslarni ishlab chiqishi lozim.

Keys asosidagi o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilar faoliyatini turli shakllarda tashkil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, taklif etilayotgan vaziyat sahnalashtirilishi hamda "Aqliy hujum", bahs-munozara, ilmiy bahslashuv metodlari orqali muhokama qilinishi mumkin.

Ochiq muloqotda asosiy omillar o'quvchilarning ko'nikma va malakalari, o'qituvchining muloqotni tashkil eta olish qobiliyati sanaladi. Savollarni berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini keys matnidagi aniq axborotga qaratadi, to'g'ri javob berishga undaydi. Keys matndagi muammoni ajratib olish, vaziyatni baholash, hodisa va jarayonni tahlil qilish o'quvchilarning kommunikatsion ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda har xil turdagi keyslarni ishlab chiqishi lozim.

«Keys-stadi» texnologiyasiga qo'yiladigan talablar:

- mavzu dolzarb va bir nechta yechimlarga ega bo'lishi;
- tanlangan matn o'quv mashg'ulotining maqsadiga mos kelishi;
- tadqiq qilinayotgan muammoni hal etish uchun axborotning yetarli bo'lishi.

“Keys-stadi” boshqa texnologiyalardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

1. Topish va hal qilish zarur bo'lgan muammoli vaziyatning mavjudligi.
2. Muammoni jamoada muhokama qilish.
3. Muammoning bir nechta yechimlari mavjudligi.
4. Ta'lim oluvchilarning emotsional holatlarini boshqarish mumkinligi.
5. Faoliyatni baholash imkoniyati.

Keys texnologiyasini tashkil etishda o'qituvchining faoliyati ikki bosqichdan iborat bo'ladi:



Birinchi bosqich — keysni va uning tahlili uchun savollarni ishlab chiqish uchun o'qituvchining ijodiy ishi. Bu bosqich o'quv mashg'ulotidan oldin amalga oshiriladi va pedagogning ilmiy-tadqiqot, metodik va konstruktiv faoliyatini qamrab oladi.

Ikkinchi bosqich — o'qituvchining auditoriyadagi faoliyati. Bunga o'qituvchining kirish so'zi, xulosasi, kichik guruhlarda ishni tashkil etishi, bahs-munozarani boshqarishi, vaziyat tahlili bo'yicha o'quvchilar faoliyatini baholashi kiradi.

Keys bilan ishlash quyidagilardan iborat:

Hamkorlikdagi faoliyatga kirishish. Bu bosqichning asosiy vazifasi hamkorlikdagi faoliyatga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish.

Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish. Bu bosqichning asosiy vazifasi kichik guruhlarda yoki individual tarzda muammoni hal etish bo'yicha faoliyatni tashkil etish. Har bir guruhda spiker (muammo yechimini taqdim etadigan), kotib (muhokamaning borishini yozib boradigan), vaqt nazoratchisi (vaqt o'tishini nazorat qiladigan) tanlanadi. Agar keys to'g'ri tuzilgan bo'lsa bir guruhning yechimi boshqa **guruhning javobiga o'xshamaydi**. O'qituvchi bahsni tashkil etadi va uni boshqaradi.

Keysni bajarish jarayonida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar rivojlanadi:

1. Axborotni qabul qilish va qayta ishlash (matnni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish, muammoni hal etish yo'llarini qidirish, axborotni sintez qilish).

Kommunikativ (suhat yuritish, boshqalarni ishontirish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, boshqalarning hulq-atvorini baholash, o'zini nazorat qilish).

3. Refleksiv ko'nikma (o'zining va boshqalarning fikrini tahlil qilish).

Institutsional tizimning izlanishi yoki tanlanishi

Keysning pedagogik pasporti

Keysning pedagogik pasporti, bu uning tashkiliy-uslubiy ta'minotidir. U quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik annotatsiya;
- talabaga uslubiy ko'rsatmalar;
- o'qituvchi – keysologning keysni hal etish varianti;
- ta'lim texnologiyasi.

Pedagogik annotatsiya

Quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Keys mo'ljallangan predmet, bo'lim, mavzu, ta'lim darajasi, kurs ko'rsatiladi.
2. Keysdan ko'zlangan maqsad (ta'limiy maqsad, rejalashtiriladigan o'quv natijalari).
3. Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan dastlabki bilim va malakalar.



4. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.

5. Axborot olish manbalari ro'yxati

6. Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi (syujet, keys ob'ekti mavjudligi, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).

7. Keysdan ko'zlangan maqsad va, tegishlicha, tashkiliy-uslubiy ta'minoti o'zgarganida u qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'quv predmetlari ro'yxati.

Keysni rasmiylashtirish yo'llari:

1. Qo'lyozma yoki bosma variantda

2. Elektron variantda

3. Video variantda

4. Audio shaklda

5. Multimedia shaklida

Taqdim etish shakliga ko'ra bugungi kunda ta'lim amaliyotida uch turdagi keys-topshiriqlaridan foydalanilmoqda:



Bosma holatdagi keys (uni yanada ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illyustratsiyalarni ham o'z ichiga oladi).

Multimedia-keys (so'nggi vaqtlarda keng qo'llashni talab etayotgan videorolik va animatsion materiallar).





Video keys (film, audio va video materiallardan iborat bo'lishi mumkin).

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, keys-stadi metodidan uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

“Hamkorlikda o'qitish” texnologiyasi

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har o'quvchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'quvchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

1. Hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

2. Yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;



3. Axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;

4. O‘rtoqlari bergan ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘shishga olib keladi.

5. Ishtirokchilar bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;

6. O‘quvchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan o‘quvchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;

7. Bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar.

8. Aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi.

9. O‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;

- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;

- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;

- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.³

Yo‘riqnomaga talab:

³ Ganieva M., Fayzullaev D. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to‘plami. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.



Yo'riqnoma quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- topshiriqni aniq ifodalanishi;

- kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;

- tajribada sinalgan bo'lishi kerak. Bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilishi kerak;

- guruh topshiriqni mustaqil bajarishi uchun to'la tavsiyanomani olishi kerak undan;

- har bir ta'lim oluvchi uchun tushunarli qilib yozilishi kerak.

Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash – o'quv guruhida xayrihona munosabat muhitini yaratadi. Faqat shunda hamkorlikda ishni samarali va ijodiy bajaradilar. Ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish qoidasini bilishlari va yo'naltirilgan bo'lishlari kerak.

Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:

- Guruh liderini saylang.
- Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.
- Topshiriqni bajaring.
- Taqdimotga tayyorlaning.
- Taqdimot o'tkazing.
- Guruh ishini baholang.

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsun, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

4. Duskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.



5. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

6. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

7. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi:

-guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi;

Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi jarayonida o'quvchi quyidagilarga ega bo'ladi:

1. Axborotni tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq sarfini talab etadi.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.

Loyiha texnologiyasi

Loyihaviy ta'lim quyidagi dolzarb muammolarni hal etish imkonini beradi va davr talabiga aynan mos keladi:

1) ta'limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta'minlaydi;



2) nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash va o'quvchilarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imko nini beradi;

3) kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Loyihali ta'limning asosiy tushunchalariga quyilagilar kiradi:

1) loyiha;

2) loyihalashtirish;

3) loyihaviy faoliyat;

4) o'quv loyihasi;

5) o'quv loyihaviy faoliyat;

6) loyihaviy ta'lim;

7) loyihaviy ta'limning texnologiyasi.


Quyida biz mazkur tushunchalar asosida loyihali ta'limning o'ziga xosliklarini yoritib beramiz.

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli) ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish - («loyiha» so'zidan) – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihaviy faoliyat o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish, loyihaviy faoliyatni rejalashtirish, loyihaviy vazifalarni hal etish, loyihani rasmiylashtirish, hisobot tuzish, natijalar taqdimotini tayyorlash, loyihaning ommaviy taqdimoti, himoyasi va bahosi, refleksiya, hisobot topshirish.



“O‘quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo‘lib, quyidagi mazmunga ega:

- muayyan iste‘molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish usuli;
- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o‘quv vositalari va qurollari;
- rivojlantiruvchi, ta‘lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

Hozirgi vaqtda ta‘lim amaliyotida loyihaning xilma-xil turlaridan foydalaniladi:

- 1) yetakchi faoliyat turiga ko‘ra: tadqiqot, amaliy yo‘naltirilgan va axborotli;
- 2) fanga yo‘naltirilganligiga ko‘ra: monoloyiha va fanlararo loyiha;
- 3) davomiyligiga ko‘ra: o‘zoq muddatli, o‘rta muddatli, qisqa muddatli;
- 4) loyiha ishtirokchilarining soniga ko‘ra: individual va guruhli.

Mazkur o‘quv loyihalarining har biri o‘zining maqsadi, natijasi va mavzu bahsi yuzasidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, axborot tavsifiga ega loyihaning maqsadi muammoning holati to‘g‘risida ma‘lumot to‘plash, uning tahlili, umumlashtirilishi, yoritilishi va muammoni hal etishning mavjud usullari va vositalari tasnifi, ularning ustunliklari va kamchiliklarini izohlash (asoslash)dan iborat bo‘lsa, tadqiqotchilikka doir loyihada esa, tadqiqotni amalga oshirish, tadqiqot asosida muammoning asoslangan izohi, kelgusida rivojlanish uchun yangi muammolarni asoslash maqsad sifatida belgilanadi.



Xuddi shunday natijasiga ko'ra ham loyihalar alohida o'ziga xoslikka ega. Masalan, tadqiqot tavsiyaga ega loyiha natijasi hisobot, ma'ruza, keys bilan tugasa, amaliy yo'naltirilgan loyihalar esa istiqbolli reja, harakatlar dasturi, strategiya, ma'lumotnoma kabi natijalarga ega bo'ladi.

O'quv loyixaviy faoliyat – bu qo'yilgan vazifaga erishish, ta'lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan biror-bir yakuniy mahsul ko'rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni yechish uchun ta'lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi.

O'quv loyixaviy faoliyat uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqich sinfda amalga oshirilib, ikkita fazani o'z ichiga oladi: loyihaga kirishish hamda loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish.

Loyihaga kirishish bosqichida o'quvchilar:

- 1) vaziyatga moslashish;
- 2) muammoni shaxsan o'zlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning yechimi dolzarb va muhimligini anglash);
- 3) loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;
- 4) loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va o'qituvchi bilan muloqotning xarakterini belgilab olishadi.

Loyihaga kirishishning rejalashtirish fazasida:

- 1) guruhlarga birlashishadi;
- 2) loyiha bo'yicha ishlar turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;
- 3) loyiha bajarish bo'yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;
- 4) uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;
- 5) natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;
- 6) loyiha mas'uli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

2. Loyihani bajarish bosqichi sinfdan tashqarida amalga oshirilib, ushbu davrda o'quvchilar o'zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar:

- 1) turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar;
- 2) tadqiqot o'tkazadilar, natijalarni tahlil etishadi;
- 3) zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar;
- 4) oraliq natijalarni muhokama qiladilar;
- 5) hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.



3. Yakunlovchi bosqich ham sinfda tashkil etilib, loyiha taqdimoti, o'quvchilar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi kabilarni o'z ichiga oladi:

1) loyihaning jamoaviy taqdimoti vaqtida quyidagilarni aks ettirishadi:

- muammo, maqsad va vazifalarni tushunish;
- ishni rejalashtirish va amalga oshirishni bilish;
- yechimlarni izlash jarayoni tahlil qilish;

2) loyihalar va taqdimotning o'zaro baholashadi;

3) faoliyat va natijaning refleksiyasini amalga oshirishadi: ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni namoyon etadilar;

4) loyiha faoliyati haqida hisobot topshirishadi.

Mazkur bosqichlarda amalga oshiriladigan o'quv loyihasi o'zining pasportiga ega bo'lib, pedagogik annotatsiya, loyiha topshirig'i, o'quvchilarga uslubiy ko'rsatmalar, loyiha ta'limning texnologik kartasini o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik annotatsiyada quyidagi muhim jihatlar o'z aksini topadi:

- 1) o'quv fanining nomi;
- 2) loyiha mavzusi;
- 3) qatnashchilar;
- 4) ta'limning maqsadi;
- 5) rejalashtiriladigan o'quv natijalari;
- 6) o'quvchilar loyihani muvaffaqiyatli hal etishi uchun avval egallangan bilim va ko'nikmalar ro'yxati;
- 7) loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi;
- 8) loyihani bajarish tartibi;
- 9) loyihaning baholanishi;
- 10) loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari;
- 11) ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi.

3. Tarix ta'limiga interfaol usullarni joriy etish

Innovatsion texnologiyalar - pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritishi bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usublardan foydalaniladi. *Faol o'qitish metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar innovatsion g'oyalarning mahsulidir.* Ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metolar interfaol usullar deyiladi. Bunday interfaol usullar ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldir. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi dialog asosida quriladi.



Interfaol (“Inter”-bu o‘zaro, “akt”-harakat qilmoq) o‘zaro harakat qilmoq yoki suhbat, muloqat tartibida bo‘lishini anglatadi. Interfaol ta’lim berish – dialogli ta’lim berish bo‘lib, bunda ta’lim beruvi va ta’lim oluvchi hamda va kompyuterning ham o‘zaro harakatida amalga oshirilishi mumkin. Interfaol usul – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini ta’minlashga, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday o‘zaro harakat turlariga *“o‘qituvchi-o‘quvchi”* va *“o‘quvchi-o‘quvchi”* ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Interfaol o‘qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashkiliy shakli bo‘lib, interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchi o‘qitishning ob’ektidan o‘zaro hamkorlikning sub’ektiga aylanishi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Bunda o‘quvchilar axborotlarni o‘zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta’lim maqsadlarining to‘laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Albatta interfaol o‘qitish texnologiyasi an’anaviy ma’ruza darslarini amaliy darslarga qarama-qarshi qo‘ymaydi. Interfaol ta’limda ma’ruza va amaliyot bir butun mashg‘ulotning qismlari deb qaraladi, bu o‘qituvchi hamda o‘quvchining o‘zaro ta’siri va o‘quvchilarning mashg‘ulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi.

Ma’lumki, an’anaviy ma’ruza darslarida o‘qituvchi faolligi ta’minlansa, amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchi faolligi talab etiladi. Interfaol usulda o‘qituvchidan mashg‘ulot davomida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir darajasining bir ko‘rinishidan ikkinchisiga mavzuga bog‘liq holda ustamonlik bilan ravon o‘tishi talab etiladi. Interfaol darslar jarayonini fan bo‘yicha mavzuning maqsad va vazifasi hamda ta’lim oluvchilarning ehtiyojiga bog‘liq holda taqsimlanadi.

An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi(talaba)larga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so‘zlashdan iboratdir. An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik ta’lim tizimiga ko‘ra, “etkazib beruvchi” rolida endi o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi namoyon bo‘ladi. O‘quvchi, asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. O‘quvchilar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo‘lib qoladi. Bir qarashda o‘quvchi yoki o‘qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi

talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi.

O'quvchi ma'lumotlarni faqat eshitish orqali qabul kilsa, berilgan ma'lumotlarning o'rtacha 20 foizini o'zlashtiradi. Ya'ni, darsda mavzu faqat og'zaki bayon metodi yordamida (an'anaviy) o'tilsa, o'quvchilar ma'lumotlarning 80 foizini esda saqlab qololmaydi va darrov unutishadi. Shu sababli ma'ruzani faqat o'qib berish yoki og'zaki tushuntirish shaklida olib borish samarasiz hisoblanadi.

Interfaol o'qitish o'quvchilardan axborotni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi konsepsiyalari fundamental asos sifatida hizmat qiladi:

1) o'qituvchining jadal faoliyati – o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;


2) o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti – talaba hisoblanadi;

3) muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat;

4) o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari hisoblanadi. Bunda ta'lim jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rin tutadi;

5) o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabadan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:




Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli




vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab - quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi"⁴.

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli – interfaol o'qitishda esa shaxslar o'rtasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:



Interfaol ta'lim mohiyatiga ko'ra suhbatning "o'quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi o'quvchi (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi. O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va xatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi:



⁴ Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 122-bet.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol usullarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Interfaol usullarga "juftlikda o'yla, ishla, fikr almash", blis-so'rov, konseptual jadval, pinbord, klaster, toifali jadval, T-jadvali, kichik guruhlarda ishlash, munozara, debatlar va boshqalar kiritilib, bu ro'yhatni yana davom ettirish mumkin.

An'anaviy hamda interfaol dars orasidagi ayrim farqlar

	Asosiy tushunchalar	An'anaviy dars	Interfaol dars
1	Dars maqsadi	Darsda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlash.	Dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatish
2	O'qituvchining vazifalari va ish usullari	Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berish.	O'quvchilarning mustaqil ishlashini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab berish.
3	O'quvchining vazifalari va ish usullari	O'qituvchini tinglash va bilimlarni o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish.	O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z fikr, xulosalarini boshqalarga solishtirish va yakuniy xulosaga kelish
4	Vaqt taqsimoti	Darsning ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni	Darsning ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z



		tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi.	xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanadi.
5	Darsning modul va algoritmi	Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi.	Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi.
6	O'quvchilar ning faollik darajasi	O'qituvchi har tomonlama faol, o'quvchilar diqqatni jamlash, tushunish, fikrlash, topshiriqlarni bajarish bo'yicha faol.	O'qituvchi ham, o'quvchilar ham har tomonlama faol. Faollikning shakllari: o'qituvchi-o'quvchi; o'quvchi-o'quvchi; o'quvchi-kichik guruh; kichik guruh-kichik guruh; o'quvchi-o'qituvchi; kichik guruh-o'qituvchi;
7	Kutiladigan natija	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi.	Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish.

4. Tarix ta'limiga interfaol usullarni joriy etish

“Juftlikda o'ylang, fikrlang, fikr almashing” texnikasi

Ushbu texnika birgalikdagi faoliyat bo'lib, talabalarni matn ustida fikrlash, o'z g'oyalarini shakllantirish va ularni hamkorlar yordamida muayyan shaklda ifodalashga yo'naltiradi.

“O'ylang - juftlikda ishleng - fikr almashing” texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. O'qituvchi savol va topshiriq beradi: oldin o'ylab chiqish, so'ng qisqa javoblar yozish tartibida.

2. Talabalar juftliklarga bo'linib, bir - biri bilan fikr almashadilar va ikkala javobni mujassam etgan umumiy javobni ishlab chiqishga harakat qiladi.

3. O'qituvchi bir necha juftliklarga o'ttiz sekund davomida auditoriyaga o'z ishining qisqa yakunini ifodalab berishni taklif qiladi.

Juftlikda o'yla, ishla, fikr almash – bu kartochkalar tuzishni talab qilmaydigan texnika. Bu jarayondan foydalanib, o'quvchilar bir-biridan o'rganadilar va o'z

g'oyalarini jamoani oldiga chiqarishdan avval xavfsiz maydonda sinovdan o'tkazish imkoniga ega bo'ladilar. Bu o'quvchilar o'z kuchiga ishonchini ko'tarishga ko'maklashadi. Bu usulning afzalliklari quyidagilardan iborat: ishga amalda hamma jalb etilgan va har bir kishi o'rganilayotgan masalaga oydinlik kiritishga o'z ulushini qo'shish imkoniga ega. O'quvchilar ham, o'qituvchi ham ulardan kutilayotgan narsani aniq tushunadilar. Bu model birinchi marta Merilend Universitetida (Frank Lipan) tomonidan taklif etilgan. Bu mashqni bajarishning to'rt bosqichi mavjud. Har bir bosqich faqat vaqt bilan cheklanadi. Buni qanday bajarish kerak?

Birinchi qadam – o'qituvchi savol beradi. Bu butun sinf muhokamasi uchun berilayotgan muammo bo'lishi mumkin. Masalan, «O'zbekiston tarixida xumo qushi nimaning ramzi»? bu jarayonda bitta javob beriladigan savollardan qochish lozim. Savollar o'quvchilarda muhokama qilish yoki fikr yuritish istagini uyg'otadigan bo'lishi kerak.

Ikkinchi qadam – o'quvchilar individual fikrlamoqdalar. O'qituvchining savoliga javob topish uchun cheklangan vaqt beriladi. Javob topishga ajratilgan vaqtni o'quvchilarning bilim darajasi, savol tavsifi va dastur talablarig talablariga muvofiq o'qituvchi belgilaydi. Agar o'quvchilar o'zlarining individual javoblarini yozib qo'ysalar foydali bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilar faqat bitta to'g'ri javob bo'lmasligi va ularning har biri o'zining javobini topishi mumkinligiga ishongani muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi qadam – juftliklarda muhokama qilish. Juftliklarga birlashib, o'quvchilar umumiy javobni ifodalashlari mumkin. Ayrim hollarda o'quvchilar o'z javoblarini yanada ishonchli bo'lishini ta'minlashlari uchun to'rtliklarga birlashib, muhokama qilishi mumkin. Juftlikdagi ishning bu bosqichi muhokama qilinayotgan masala ro'yobga chiqargan muammolar to'g'risidagi fikrlarni kengaytirishga ko'maklashadi.

To'rtinchi qadam – o'quvchilar o'z javoblari bilan sinfni tanishtiradilar. Bu bosqichda o'quvchilar o'z echimlarini ham individual ravishda ham hamkorlikda taqdim etishlari mumkin. «O'yla, juftlikda ishla va fikr almash» mashqining yakuniy bosqichi bir necha afzalliklarga ega. O'quvchilar echimning har XII, betakror yo'llarini topadilar. Uni ustiga o'quv mazmuni kitob yoki o'qituvchi tilida emas, balki o'quvchilarning tilida ifodalanadi.

«O'yla, juftlikda ishla va fikr almash» mashqining *muvaqqafiyati va sifati birinchi bosqichda berilayotgan savol sifatiga bog'liq*. Agar savol o'quvchilarning chuqur tafakkuriga ko'maklashsa, shunday chuqur tushunish keyingi bosqichlarda ham albatta paydo bo'ladi.


“Blis-so'rov” metodi

“Blis-so'rov” (inglizcha “blis” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta'lim



muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o'quvchi (talaba)larning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

Mashg'ulotlarda metodni qo'llash quyidagicha kechadi:




Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati o'quvchi (talaba)lar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“Konseptual jadval” metodi

Metod o'quvchi (talaba)larni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda o'quvchi (talaba)larning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:






O'quvchi (talaba)lar e'tiboriga quyidagi namunani tavsiya etish mumkin:

O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

“Muammo” texnologiyasi

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni mavzudan kelib chiqib, turli muammoli masala yoki vaziyatlarning to'g'ri yechimini topish, muammo mohiyatini aniqlashga doir malakalarni shakllantirish, uni yechishning ayrim usullari bilan tanishtirish, yechimni topish uchun mos usullarni to'g'ri tanlash, muammoning kelib chiqish sabablari, shuningdek, yechimni topishga yo'naltirilgan harakatlarning maqsadga muvofiqligini aniqlashga o'rgatadi⁵.

Ta'lim jarayonida texnologiyani qo'llash quyidagicha kechadi:



⁵ Ro'zieva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi – Toshki



Izoh: 1. O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni texnologiyadan foydalanish qoidalari bilan tanishtirishda mashg'ulotning bosqichli bo'lishi, har bir bosqichda o'quvchi (talaba)dan e'tiborli bo'lish talab qilinishi, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlariga urg'u berib o'tishi lozim. Bunday yo'l tutish o'quvchilarning topshiriqlarni bajarishga ruhan tayyor bo'lishlariga yordam beradi, ularda qiziqini uyg'otadi.

2. Texnologiya asosida ishlashda o'quvchi (talaba)lar tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, darslik, yordamchi adabiyotlardan biror bir materialni o'rganib, unda yoritilgan muammolarni aniqlaydi va ularni xotirada saqlab qoladi yoki daftarlarga belgilab qo'yadi.

3. O'quvchi (talaba)lar topshiriqni individual ravishda bajarishlari uchun o'qituvchi tomonidan quyidagi jadval tavsiya etiladi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoning yechish yo'llari (amaliy harakatlar)
1.		
2.		
...		

“3x4” texnologiyasi

Texnologiya o'quvchi (talaba)larni aniq bir muammoni yakka holda fikrlab hal etish, yechimini topish, g'oyalar orasidan muhimini tanlay bilish, bir necha muhim fikrni umumlashtirish, ular asosida muammo yuzasidan aniq tushuncha hosil qilish va o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi. U o'quvchi (talaba)larni mustaqil fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, fikrlarni jamlab, nazariy va amaliy tushunchalar hosil qilish, jamoaga o'z fikrini o'tkazish, o'z fikrini ma'qullash, muammoni yechish va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'rganilgan barcha mavzular bo'yicha egallangan bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Texnologiya yordamida o'quvchi (talaba)lar topshiriqlarni dastlab individual, so'ngra kichik guruhlar tartibida yozma shaklda bajaradi.

Izoh: 1. Guruhlar sonining to'rtta bo'lishi texnologiya samaradorligi ta'minlaydi. Bunda mashg'ulot zerikarli bo'lmaydi. Agar guruhlar soni 4 tadan ortiq bo'lsa, guruhlarini ikkita katta guruhlariga ajratish mumkin.


2. Tarqatmali materialda ko'rsatilgan mavzu bo'yicha 3 ta tayanch tushuncha (so'z, so'z birikmasi yoki 3 ta gap) yozish talab etiladi.

3. Dastlabki topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo'nalishi bo'yicha o'z joylarini o'zgartiradi (1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning, 3-guruh 4-guruhning, 4-guruh 1-guruhning o'rnini egallaydi). Bu holat har bir guruh o'zining dastlabki o'rniga yetib kelgunga qadar davom etadi.

4. Guruhlarning taqdimotidan so'ng har bir o'quvchi (talaba) ham individual ravishda o'zining mualliflik ishini namoyish qilishi mumkin.


“Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya o'quvchi (talaba)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.



Strategiya o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:






topshiriqlarni bajaradi. O'quvchi (talaba)larning e'tiborlariga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1- guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“Videotopishmoq” metodi (video keys)

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida o'qitishda turli axborot vositalaridan o'rinli, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi.

Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:





Videolavhalar namoyish qilingach, o'quvchi (talaba)lardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o'quvchi (talaba)lar o'rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Interfaol usullar mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, biroq, ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o'qituvchi (pedagog)lar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi yanada oshadi, qachonki, ularni qo'llashda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba)larning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu o'qituvchi (pedagog)lardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

2. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari

Kichik guruhlarda ish olib borish guruhlarda ishlash - bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan - 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi, topshiriq - natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Guruhli treningda qo'llaniladigan asosiy usulblardan biri kichik guruhlarda ishni tashkil qilishdir. Ushbu uslubning psixologik jihatdan manzurligi, notanish masalalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda har bir ishtirokchi, guruh ishining yaxshi natijasi uchun ma'suliyatni sezgan holda ishga kirishadilar.

Shu uslubning ustunligi nimada? Kichik guruhlarda ishlaganda kamgap ishtirokchilar o'zlarini yaxshiroq his qiladilar. Aynan shunday odamlar uchun bu guruhlarda ishlash, o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda juda qo'l keladi va kelajakda boshqa muhokamalarda o'z fikrlarini bildirib, ular aktiv ishtirok etadilar. Shu uslub yordamida uyatchan va kamgap ishtirokchilar ko'pchilik fikriga qo'shilmasdan o'z fikrlarini o'rtaga tashlashga harakat qiladilar.

Guruhlarning eng qulay soni:

3kishidan iborat guruh - eng kichik guruh bo'lib, g'oyalarni tanlash va rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralaydi;

4kishidan iborat guruh — yetarli darajadagi muvaffaqiyatli guruh;

5va 6 kishidan iborat guruh - eng yaxshi va samarali natijaga erishuvchi guruh;

7kishidan iborat guruh - yetarli darajada muvaffaqiyatli, lekin kattaroq bo'lgan guruh;



8 va 9 kishidan tashkil topgan guruh - guruh kichik guruhlariga bo'lina boshlaydi, yoki qarama-qarshi fikrli guruhlar tashkil topadi. Bunday vaziyatda qoniqarli natijaga erishish mumkin, lekin bu narsa ko'p vaqt talab qiladi.

10 va undan ortiq kishidan tashkil topgan guruh - qoniqarsiz guruh. Bu sonli guruhlarda ishtirokchilar orasida ziddiyatlar hosil bo'lib, guruh ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi:

Kichik guruhlarda ishlashda o'quvchilar mashg'ulotlarda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar, yetakchi rollarni bajaradilar (bahsni olib boradilar yoki guruhning ishini namoyish qiladilar, guruh qarorini spiker sifatida barchaga yetkazib beradilar), bir-birlari bilan tajriba almashadilar, turli fikrlarni qadrlashni o'rganadilar.

Barcha muhokamada qatnashishi va o'z fikrini bildirishi, bir-biriga yordam berishi uchun kichik guruhlarda ishlash usuli qo'llaniladi. Guruhlar 5-7 kishidan iborat bo'lib, jamoa bo'lib ishlashni o'rganish uchun vaqti-vaqti bilan guruhlar a'zolari tarkibi o'zgartirib turiladi. Vaqtdan maqsadli foydalanish uchun kichik guruhlarda ishlash qoidalariga va tarkibiga rioya etish zarur.

Guruhlarda hamkorlikda o'qitish faoliyatini tashkil etish texnologiyasi:

Tanqidiy fikr – bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Yana bu qoidaga aniqlik kiritadigan bo'lsak, fikrlash – bu o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvoffiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Tanqidiy (tahliliy) fikr shu bilan ahamiyatlidir:

- hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib etishga yordam beradi;

- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;

- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratishi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida tanqidiy (tahliliy) fikrlashning asoslanishi:

1. O'qituvchi (pedagog) o'quvchi-talaba o'rtasida hamda o'quvchi-talabanning o'zaro hurmatini tarbiyalaydi.

2. Mashg'ulot jarayonida o'quvchi-talaba tajribasidan foydalaniladi.

3. O'quv mazmuni o'quvchi-talabanning talablariga mos va aniq belgilanadi.

4. Muammoni hal qilishda o'quv materiallaridan foydalaniladi.

5. Har xil buyum va qarashlar integratsiyalashadi.

6. Dastlabki shart-sharoitlar qabul qilinadi va tekshirib ko'riladi.

7. Ta'lim o'qituvchi (pedagog) va o'quvchi-talaba, o'quvchi-talabani o'zaro munosabati orqali berib boriladi.



8. O'quvchi-talaba mustaqil ta'lim olishi uchun sharoit yaratiladi – o'quvchi-talabani tayyorlash darajasiga muvoffiq metodlar tanlanadi.

Mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda kasb-hunarga yo'llash, didaktik o'yin davomida vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda mo'ljalni to'g'ri olish, har xil vaziyatlarni tahlil qilib, to'g'ri xulosa chiqarishga zamin hozirlaydi.

O'quv dasturlaridan o'rin olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars «aqliy hujum» shaklida o'rganilishi tavsiya etiladi va munozarali mavzular munozarali dars shaklida o'rganilishi maqsadga muvoffiq. O'quv jarayonida munozarali darslarning ikki xili: ilmiy munozara va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi.

Interfaol metodlar - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, noverbal va verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlar o'zaro ta'sir asosida qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir, turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmasdan, balki hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanishi mumkin.

Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda quyidagi interfaol metodlar qo'llaniladi:

- o'qitishning ko'rgazmali metodi;
- mustaqil ishlar metodi;
- muammoli evristik modellashtirish metodi;
- ilmiy tadqiqot metodlari;
- o'qitishning muammoli-izlanish va reproduktiv metodi;
- o'qitishning induktiv va deduktiv metodi;
- o'qitishning nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodi.

Metodlar quyidagi guruhchalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quv axborotlarini eshitish orqali qabul qilish metodlari (og'zaki metodlar: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar).

2. O'quv axborotlarini ko'rgazmali o'zlatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metod, tasviriy namoyish qilish va boshqalar).

3. O'quv axborotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya ishlari, dastur tuzish, pedagogik masalalarni yechish, mehnat harakatlari va boshqalar).



Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo'llash rag'batlantiriladi.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, talabalar intellektual, zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi.

Muammoli vaziyat qanday hosil qilinadi? Buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq e'lon qilinadi. endi shu vazifani bajarish uchun talaba bor bilim va ko'nikmalarini eslaydi, topshiriqni bajarishda shu paytgacha egallagan bilimlarining yetishmasligini sezish bilan birga talaba shaxsida ma'lum psixologik qarama-qarshilik shaklidagi holat yuz beradi. Galdagi muammo topshiriqni bajarish va shu topshiriqni bajarish uchun yangi bilim, iqtidor va ko'nikmalarni izlash muammosi paydo bo'ladi. Ana shu vaziyat esa, muammoli tahsilning boshlanish jarayoni hisoblanadi.

Pedagog talabalarning topshiriqni mustaqil bajarish jarayonini zukkolik bilan boshqaradi, e'tibor bilan kuzatadi, kerak bo'lganda jonli muloqotga chorlaydi. Talabalar mantiqiy fikrlash davomida ularning jonli mushohadasi, fikr doirasi pedagog tomonidan izchillik bilan hisobga olinib tahsil oxirida faol talabalarga qo'yilgan ballar yoki baholarni e'lon qiladi.

Talabalarda umumlashgan psixologik va uslubiy bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirish, o'z tajribalarini tanqidiy nuqtai nazardan yanada mustahkamlash, real haqiqiy amaliyotdagi sharoitda sinash va amaliy ko'nikmalarni yangi bilimlar bilan yanada boyitish maqsadida shu uslubdan foydalaniladi.

Ma'lumki, har qanday fan o'qitilishi uchun, belgilangan maqsadga ko'ra, uning mazmuni, o'zlashtirish uchun mos metodlari, o'quv vositalari va ularga mos ravishda o'qitish shakli tanlanadi.

Talabalarning psixologik tayyorgarliklari, fikrlash darajalari yoki olgan bilimlarini o'zlashtirish darajalariga qarab, har bir ta'lim bosqichi uchun mos mazmun va metodlar tanlanadi. Ta'limda har doim mazmun va metodlar muammosi mavjud, bu muammolar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ta'lim metodlaridagi muammolar «Kimni qanday o'qitamiz?» degan savol bilan bog'liq bo'lib, bundan ta'lim metodlarini ishlab chiqish uning mazmuniga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Bu ikki muammo o'zaro qarama-qarshilikda bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi.

Metodikaning maqsadi mazkur fandan yangi o'quv fani (o'quv predmeti)ni yaratish va bu fanning o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Bunday o'quv fanlari talabaning barcha talab va ehtiyojlarini qoniqtirishi, Pedagogik texnologiyar talablari asosida avval «o'qish so'ngra, bu o'qishga o'rgatish uchun o'qitish» tamoyiliga



asoslanishi, talabanning o'quv materialini o'zlashtirishdagi darajalari, nazariy va amaliy bilimlarini egallashda «soddadan-murakkabga» qoidasiga asoslangan nazorat topshiriqlarini belgilash talabalarga individual va tabaqalashgan yondashuv xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlarini ayting.
2. Pedagogik texnologiyaning tarixiy bosqich va ulardagi mazmunini izohlang.
3. Metodika va pedagogik texnologiyaning farqini misollar bilan tushuntiring.
4. Keys-stadi (Case – stadi), hamkorlikda o'qitish texnologiyalariga tarixdan misollar ishlab chiqing.
5. Loyihaviy ta'limdan foydalanishning ijtimoiy-pedagogik shartlari.
6. Interfaol usullarning mazmun va mohiyatini ayting.
7. Interfaol usullarda dars o'tishning yutuq va kamchiliklarini tahlilini keltiring.
8. Interfaol usullarning turlariga misollar keltiring.
9. Guruhlarni eng faol va samarali tashkil etishda guruh a'zolarining soni necha kishi bo'lishi tavsiya etiladi?
10. Seminar darslariga qo'yilgan maqsadga erishish va talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish uchun pedagogik texnologiyaning qaysi metodlaridan foydalanish kerak?
11. Tarix darslarida mustaqil ta'limning eng qulay tashkil etish shartlari haqida to'xtaling?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Joyce Appleby, Lynn Hunt, Margaret Jacob. TELLING THE TRUTH ABOUT HISTORY. W.W. Norton & Company. New York - London. 1994.
2. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o'qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.
3. Pathak R.P. Methodology of Yeducational Research. Atlantic. USA. 2008.
4. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.
5. Azizzodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – Toshkent, 2006.
6. Voinova M.G. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2006.
7. Ganieva M., Fayzullaev D. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.
8. Ganieva M., Fayzullaev D. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to'plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 44 b.
9. Ganieva M., Fayzullaev D. O'qitishning loyihaviy texnologiyasi to'plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.

10. Ganieva M., Fayzullaev D., Ne'matov I. Maqsadni belgilash va uch darajali testlarni ishlab chiqishning pedagogik texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 95 b.
11. Ganieva M., Fayzullaev D., Ne'matov I. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalari to'plami. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.
12. Ganieva M., Fayzullaev D. Zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to'plami. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 95 b.
13. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. - Toshkent: TESIS, 2001. - 38 b.
14. Golish L.V., Xashimova D.P. "Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" treningining o'quv-metodik materiallari. – Toshkent: TDIU, 2014. – 80 b.
15. Ziyomammedov B. Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Chinoz, 2002.
16. Yo'ldoshev J., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. - Toshkent, 2004.
17. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.
18. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. - 180 b.
19. Klarin M.V. Interaktivnoe obucheniya-instrument osvoenie novogo opyta // Pedagogika. 2000. № 7 - S. 12-18.
20. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi, Nasaf, 2000.
21. Ro'zieva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2014.
22. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
23. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - Toshkent, 2003. - 66 b.
24. Safin D.V., Musina R.G. Ta'lim berish va o'qitishning interfaol usullari. O'quv qo'llanma. 1-modul. Interfaol o'qitishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2007.
25. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: Uchebnoe posobie. - M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.
26. Tolipov J., Usmanbaeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent, 2006.
27. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati // Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU Rizografi, 2014. 6,5 b.t.
28. Farberman B.L. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Fan, 2001.

29. Xodiev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboev O.K. Keys-stadi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma /"Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - Toshkent: TDIU, 2009. – 150 b.

3-Mavzu: Oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari

Reja:

1. Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli. OTMda tarixdan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari
2. Ma'ruza va uning asosiy vazifalari, samaradorlik shartlari.
3. Seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, malakaviy amaliyot.

Tayanch tushunchalar: dars, an'anaviy dars, noan'anaviy dars, ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya, malakaviy amaliyot, tarix fanining ta'lim-tarbiya vazifalari, ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik.

1. Dars - o'quv va tarbiyaviy ishning asosiy tashkiliy shakli. OTMda tarixdan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllari

Dars – o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi. Dars ta'lim va tarbiya jarayonining maxsus shakllari esa dars samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi⁶.

Tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining tutgan o'rni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari, har bir bob va ulardagi mavzular, hatto har bir darsda o'qitiladigan mavzuning ham ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyin tarix o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi⁷.

Tarix ta'limida o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to'g'ri belgilab olinishiga bog'liq. Bu ham, o'z navbatida, o'qituvchining darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi puxta nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog'liqdir.

Qarang: ⁶ Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. (bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: O'zMU - Universitet, 2002. – 190 b.

⁷ Sagdiev A., Fuzailova G., Hasanova M. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008. - B. 37-47.



Dars o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini sifatida yoshlarga fan asoslarini o'rgatishda muhim o'rin tutadi. Tarix darsiga qo'yiladigan didaktik talablar bu - ilmiylik, tarixiylik, metodologik, ko'rsatmalilik, o'quvchilarni bilish imkoniyati va yosh psixologik xususiyatlari, uzviylik va uzluksizlik, tarixni zamon va makon kontekstida bog'lash, ta'lim va tarbiya maqsadiga ega ekanligidir.

Har bir darsga tayyorlanishda DTS va o'quv dasturining uqtirish xatidagi ko'rsatmalar nazarda tutiladi. Darsni tayyorlash va o'tkazishda o'qituvchining o'z predmeti bo'yicha o'quv dasturining har bir mavzusiga tayyorlanishi, har bir darsga tayyorlanishini talab qiladi.

Har bir alohida darsga tayyorlanishda o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- Mavzudan kelib chiqib maqsad va vazifalarni konkretlashtiradi;
- o'quv materialini mazmunini ajratadi va uni didaktik jihatdan ishlab chiqadi (etakchi tushuncha, qonuniyat, fakt va amaliy ma'lumotlarni ajratadi);
- ilgari o'rganilgan bilan bog'lanishni, mazmunni joylashtirish mantiqini nazarda tutadi;
- o'quvchilarning o'quv - bilish faoliyatlari xarakterini aniqlaydi, ya'ni qanday ko'nikma va malakalar shakllanishini, reproduktiv va izlanish faoliyati, mustaqil ish va o'qituvchining roli o'rtasidagi nisbat qanday bo'lishini o'ylab quyadi.
- dars shakli, vositasi, metod va usullarini aniqlaydi;
- o'qitish metodlari: masala, mashq, muammoli savollar, topshiriqlarni tanlaydi va aniqlaydi.
- dars jarayonini loyihalashtiradi va rejalashtiradi.

Yaxshi tayyorlangan darsni yana uyushgan holda aniq va samarali o'tkaza bilish ham kerak. Bunda quyilagi qoidalarga amal qilish lozim:

- 1) darsni aniq va uyushgan holda boshlash, buning uchun esa darsga hamma narsa oldindan tayyorlangan bo'lishi kerak;
- 2) o'quvchilar e'tiborini dars mazmuniga qarata bilish va uni butun dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirib saqlay bilish.
- 3) darsda vaqtdan oqilona foydalanish;
- 4) o'z hatti - harakatini kuzatish. Yuksak ma'naviyat, ahloqiylik va madaniyat, gapirish va talab qilish, rag'batlantirish, o'quvchilarga murojaat qilish uslubi bularning barchasi o'qituvchi faoliyatining uslubini belgilaydi, hamda o'quvchilarning zo'r berib ishlashi yoki o'ta emotsional qo'g'oluvchanligini istisno qiladi.
- 5) darsda tadbirkorlikni namoyish qilish yuzaga kelgan sharoitni darsni o'tkazish sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olish zarur.

Ta'lim tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar tizimida tutgan o'rnini aniq belgilash va shu



vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi.

Har bir tarix darsi va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitishning maqsadi bu ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlashdir. Ilmiy dunyoqarashni asosini tashkil etuvchi muhim tushunchalarni o'quvchilar asta-sekinlik bilan, bir qancha darslar davomida o'zlashtirib boradi, yangi tushunchalar keyingi dars materiallari asosida konkretlashib, yangi mazmun bilan to'ldiriladi. Keyingi dars o'quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilimi, orttirgan malakalarini kengaytiradi, ularda yangi tushunchalar hosil qiladi. O'quvchilar tarixiy jarayonlarni keng va chuqurroq tushunadigan bo'lib boradi.

Dars o'quvchilarning doimiy tarkibi, mashg'ulotlarning aniq belgilangan oldindan tuziladigan jadval va o'quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ta'limning jamoa shakli hisoblanadi.

O'quv mashg'ulotlarida talabalar o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratiladi.

■ **Bilim** – atrof muhit qonuniyatlari, qonunlari, hodisalari, dalillari shuningdek, faoliyat usullari haqidagi tushuncha va tasavvurlarning o'zlashtirilishi, tizimga solinishi hamda xotirada mustahkamlanishi

■ **Ko'nikma** – ta'lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo'lgan harakat usullaridan foydalanib, muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati

■ **Malaka** – ta'lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda avtomatik ravishda bajarish qobiliyati

Oliy maktabdagi o'quv mashg'ulotlarining shakllariga ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya ishi, maslahat, o'quv pedagogik amaliyoti, mustaqil ish, nazorat ishi kurs ishi, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash kiradi.

2. Ma'ruza va uning asosiy vazifalari, samaradorlik shartlari

Ma'ruza – oliy o'quv yurti ta'lim tarbiya jarayonida keng qo'llanib kelayotgan shakllardan biridir. Ma'ruzalarda qatnashish majburiy hisoblanib, unda talaba kasbiy tayyorgarlik uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallaydi. Ma'ruzalar mazmunida muayyan fandagi muammolar, nuqtai nazar, manbalar, g'oyalarning mazmuni ochib beriladi, umumlashtiriladi.

Ma'ruza – o'quv mashg'ulotlarining muhim turlari sifatida fanning metodologiyasini ochib beradi, shuningdek, o'rganilayotgan fan bo'yicha ilmiy bilimlar beradi, dunyoqarashni shakllantiradi, o'rganilayotgan mavzuning eng muhim masalalarini keng tahlil qiladi, kursantlarning bilish faoliyatini faollashtiradi, materialni mustaqil o'rganishning asosiy yo'nalishlari va metodikasini ko'rsatib

beradi. Shu bilan birga, ma'ruza mashg'ulotlarida ko'rib chiqiladigan savollarning asosiy ilmiy-nazariy qoidalari va ularning huquqni qo'llash faoliyatidagi amaliy ahamiyati ochib beriladi va mazkur fan bo'yicha mavzular rejasida nazarda tutilgan tegishli mavzularni o'rganish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Ma'ruza – u yoki bu ilmiy masalani to'g'ri, mantiqiy izchilikda va aniq izohlab berish bo'lib, bunda o'qituvchi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Bunda o'qitishning yo'naltiruv, axborot berish, metodologik va tarbiyalov funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Ma'ruza - o'qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- *yo'naltirish* - talabalarning diqqati o'quv materialining asosiy qoidalari, uni o'rganishdagi hamda bo'lg'usi kasbiy faoliyatidagi roli va ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi.

- *axborot berish* - o'qituvchi tomonidan asosiy ilmiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini ochish chog'ida amalga oshiriladi.

- *metodologik* - ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi. Qo'llash tadqiqot metodlarini qiyoslash, chog'ishtirishga, ilmiy izlanishning tamoyillari va yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi.

- *tarbiyalovchi* - ma'ruza jarayonida o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

- *rivojlantiruvchilik* - bilim olish qiziqishlarini, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'ruza jarayonida professor-o'qituvchi bilan talaba o'rtasida bevosita aloqa o'rnatiladi, ma'ruza mazmunida hali darslikka kirmagan yangi fikr va g'oyalar, yangi nuqtai nazarlar bayon qilinadi. Ma'ruza talabaga bilimlar olamiga kirish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'ruzachi o'quv dasturining butun mazmunini emas, balki muhim, murakkab joylarini aniqlab, uni ochib beradi, fandagi farazlarni keltirib, mustaqil fikr yuritishga undaydi, muammolar qo'yib, uni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi.

Ayniqsa, quyi kurs talabalari uchun ma'ruzalar muhim rol o'ynaydi, chunki ma'ruza talabani fan olamiga olib kirish bilan birga bilimlarni mustaqil egallashning manbalari, yo'llari, vositalarini ko'rsatadi. Professor-o'qituvchi ma'ruzada qarama-qarshi fikrlar, nuqtai nazarlarni aytadi, talaba manbalar ustida mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash yo'li bilan ilmiy xulosaga keladi.

Oliy maktabda ma'ruza o'qish, odatda yuqori malakali, tajribali o'qituvchilar (fan nomzodlari, doktorlar, dotsentlar, professorlar)ga topshiriladi. Ma'ruzada hozirgi zamon fani - mamlakatimiz va chet el olimlarining erishgan muvafaqiyatlari haqida ilmiy axborotlar beriladi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'ruzada hal qilinadigan **asosiy vazifalar** quyidagilardan iborat:

- *ilmiy bilimlarning muayyan miqdori bayon qilinadi;*
- *talabalarga fan va tadqiqotlarning metodologiyasi tanishtiriladi;*
- *o'quv faoliyati va o'quv mashg'ulotlarining barcha turlari orasidagi metodik aloqalar ko'rsatiladi.*

Ma'ruza didaktik maqsadi, o'qitish jarayonidagi o'rni, axborotlarni bayon qilish metodlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Didaktik maqsadiga (yo'nalganligiga) ko'ra kirish, tematik va umumiy - yakuniy ma'ruzalar farqlanadi.

Kirish (muqaddima) ma'ruzada kurs (bo'lim, mavzu)ning ilm-fan tizimidagi o'rni, ushbu materialni amaliyotda qo'llash imkoniyatlari, kurs (bo'lim, mavzu) mazmunini o'rganish metodlari ochib beriladi. Bunday ma'ruzaning muhim xususiyati shundaki, unda o'qituvchi asosiy masalaning u yoki bu tomonlarigagina to'xtaladi, bu masalalar keyinchalik albatta detalma-detal yoritib beriladi.

Mavzular (tematik) ma'ruzalar ayniqsa, kengtarqalgan. Bunday ma'ruza u yoki bu mavzuga bag'ishlangan bo'lib, unda faktlar, ularning tahlillari, xulosalar mazmuni bayon qilinadi va konkret ilmiy qoidalar isbotlanadi.

Umumiy-yakuniy ma'ruza avval o'rganilgan materiallarni qaytadan umumlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Uning mazmuni avval bayon qilingan mazmunga o'xshamaydi, balki talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarni yuksak abstraksiyalash mavhum bosqichida tizimga tushiriladi. Bunday ma'ruzalar talabalar bilimining chuqurlashishida va o'quv fani metodologiyasini yaxshi tasavvur qilishda alohida ahamiyatga molik bo'ladi.

Axborotlarning bayon qilinishga ko'ra *ma'ruzalar dogmatik, axborot va namoyish qilish va muammoli* ma'ruzalardan iborat bo'ladi, lekin shuni ta'kidlash joizki, har bir ma'ruzaning o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilgan holda, ulardagi umumiy jihatlarni ham farqlash lozim, chunki ma'ruza o'qish va uni loyihalash jarayonida ularni amalga oshirmasdan bo'lmaydi, ular quyidagilar:

- *ilmiylik;*
- *qulaylik;*
- *kasbiy yo'naltirilganlik;*
- *oqibatli aloqani amalga oshirish.*

Ma'ruzani faollashtirish, qiziqarli va samarali o'tkazish uchun nimalar qilish kerak?

1. *Avvalombor quyidagi didaktik talablarni bajarish kerak.*
- ma'ruzaning batafsil rejasini tuzish;



- ta'lim oluvchilar uchun aniq tuzilmaga keltirilgan mashg'ulot (kirish, asosiy savollar, asosiy joylar, yakun va xulosalarni ajratib ko'rsatish);
- mustaqil o'qish uchun mavzu, maqsad, vazifa va ma'ruza rejasi, adabiyotlarni ma'lum qilish;
- rejaning har bir qismidan so'ng umumlashtiruvchi xulosalar qilish;
- ma'ruzaning bir qismidan boshqa qismiga o'tishda mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash;
- yozish zarur bo'lgan joylarni: asosiy tushuncha, ifoda, vaqt, dalillar va boshq. aytib turish.

2. *Faol ta'lim usullarini qo'llash*

- muammoli ma'ruza
- anjuman-ma'ruza
- konspektsiz ma'ruza –
- mualliflik ma'ruzasi
- munozarali ma'ruza
- qaytar aloqadan foydalanilgan ma'ruza
- aniq vaziyatlarni ko'rib chiqish ma'ruzasi
- ma'ruza-suhbat

3. *Ta'lim berish vositalaridan foydalanish*

- video
- grafoproektor
- flip-chart va boshq.

4. *Ma'ruzaga talabalar ishtiroki elementlarini kiritish kerak:*

- savollar berish va talabalar javoblaridan foydalanish;
- bunda ularning ahamiyatini ko'rsatish;
- vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat berish, bu zo'riqishni pasaytiradi va hissiy kuch beradi;
- aniq holatlarni, jumladan muammoli vaziyatlarni aniqlash, har kungi hayotdan misollar keltirish;
- talabalarda savollar berishga qiziqishni uyg'otish;
- avval o'rganilganlar bilan, ya'ni yangi holat va dalillarni taqqoslash.

3. Seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari

Seminar - OO'Yuda ta'limning amaliy shakl va usullaridan bo'lib, dastur materiali jiddiy va chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga binoan bakalavriat yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalarida seminar va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt (soat) ajratiladi.

Seminar mashg'ulotlari – o'quv fanlarining asosiy, eng murakkab mavzulari yoki bo'limlari bo'yicha o'tkaziladi va kursantlar tomonidan ma'ruzalarda hamda mustaqil ish jarayonida olingan bilimlarni tekshirish, chuqurlashtirish,



mustahkamlashni, materialni mustaqil ravishda o'zlashtirishga ko'maklashishni, shuningdek, tinlovchilarga materialni og'zaki bayon qilish, bahs olib borish ko'nikmalarini berishni maqsad qilib qo'yadi. Munozara mashg'uloti ijodiy muhokama, faol diskussiya, kursantlar oldindan tayyorlagan ma'ruzalar (referatlar) bo'yicha fikr almashish va boshqa interaktiv shakllarda o'tkaziladi. Seminar mashg'uloti amaliy mashg'ulot elementlarini o'z ichiga olishi mumkin (masalalar, topshiriqlar bajarish va hakoza). Seminar mashg'ulotlari davomida talabalar fanning asosiy qoidalari haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Talabalar munozara mashg'ulotiga tayyorlanganda rejada ko'rsatilgan savollarni o'rganib olishlari va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilgan holda ularga yozma ravishda javob yozishlari lozim.

Seminar - ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi, mashg'ulotni o'qitish shaklidir. *Seminar mashg'ulotining asosiy maqsadi* - nazariy materialni (bilimlarini) tartibga solish, amaliy malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, bilimlarini nazorat qilishdir.

Seminar quyidagi vazifalarni yechishga qaratilgan bo'ladi:

- *ma'ruzada bayon qilingan nazariy qoidalarni mustahkamlash;*
- *fan bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;*
- *talabalarning ilmiy-tadqiqot, bilish qobiliyatlarini o'stirish;*
- *nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotda tan olinishi.*

Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish talabadan jiddiy tayyorgarlikni talab etadi. Talaba mavzuga tegishli marixiy manba, tadqiqotlarni chuqur o'rganishi, yozib kelishi va fikrini ilmiy dalillar bilan asosli raqishda og'zaki bayon etishi zarur. Seminar mashg'uloti bahs-munozarali tarzda bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Seminarda talabalar faol qatnashishi talabaning o'zlashtirish sifatini va nutq madaniyatini oshiradi. Bunda kichik guruhlarda ishlash, pedagogik texnologiyalar va AKT yutuqlaridan keng foydalanish zamon talabidir.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida seminar mashg'ulotlarining uch turi farqlanadi: *seminaroldi mashg'uloti, seminar va maxsus seminar.*

- **Seminaroldi** mashg'ulotlari, asosan, talabalarni mustaqil ishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. Unda adabiyotlar, ma'lumotnoma-adabiyotlar va boshqa manbalar bilan ishlash usullari o'rgatiladi, talabalarni boshlang'ich shaklda ilmiy-tadqiqot ishlariga o'tishga hozirlaydi. Seminaroldi mashg'ulotlari seminar mashg'ulotlarining tayyorgarlik shakli hisoblanadi va odatda birinchi kurslarda o'tkaziladi.

- Seminaroldi mashg'ulotlarida o'qituvchi yetakchilik qiladi, chunki talabalar muayyan ixtisoslik bo'yicha o'quv ishlariga kam e'tibor beradilar, shuning uchun ham yetarli darajada tashabbus ko'rsata olmaydilar.



- **Seminar mashg'ulotlarida** seminaroldi mashg'ulotlariga nisbatan o'ta muhim vazifalar hal qilinadi. Masalan, ayrim seminarlar tematik bog'langan muayyan muntazam kursni chuqur o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Boshqalari esa biror mavzuni yoki kursning alohida va nihoyatda muhim va umumiy bo'lgan mavzularini metodologik jihatdan ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'ladi.

- **Maxsus seminarlar** ma'ruza mavzulariga aloqador bo'lmaydi va biror fanning dasturi mazmuniga kirmaydi. Odatda fanning xususiy masalalarini chuqur o'rganish maqsadini ko'zlaydi.

Talabalarning seminar mashg'ulotlarida bo'yicha izohlar quyidagicha bo'lishi kerak:

- *mustaqil fikrlashga yo'naltirib turish;*
- *tavsiya etilayotgan masalaning mohiyati va shaklini aniqlash;*
- *talabalar bahsidagi nuqtai nazarlarni darrov farqlab olish;*
- *masalaning nostandart hal qilinishini rag'batlantirish.*

Seminar mashg'ulotlarida talabalarni faollashtirish, maqsadida ular tomonidan referatlar yozish, ularni muhokama qilish va taqrizdan o'tkazishga ham jalb etiladi. Shuningdek taqdimot asosida ham tayyorgarlik ko'rish talab qilinadi.

Seminarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar:

- ta'lim beruvchining tayyorgarligi, bunda savol-javob texnikasiga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilar guruxining xolati, uning motivatsiyasi, faoliyatni tashkil etish xususiyatlari;
- o'quv jarayonining texnik jihozlanganligiga bog'liqdir.
- seminar mashg'uloti samaradorligi - bu har bir seminar ishtirokchisi uchun eng ko'p individuallik samaradorligi hisobi bilan, belgilangan maqsadlarga erishish.

Seminar mashg'ulotlari qanday xususiyatlarga ega? Birinchidan, talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish va tarkiblashtirish, mustahkamlash hamda kengaytirish bo'lsa, ikkinchidan avval o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va tarkiblashtirish, mavzuning nazariy tushunchalarini ichki o'zaro bog'liqligini va mavzuni kursning boshqa mavzulari yoki boshqa fanlar bilan bog'liqligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

4. Amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari, malakaviy amaliyot

Oliy maktab o'qitish tizimida seminardan farqli o'laroq **amaliy** (mashq, laboratoriya) mashg'ulot turi ham kiradiki, ular: ta'limiy, tarbiyaviy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash funksiyalarini bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlar - oliy maktabda ma'ruzalar mazmunidagi muhim masalalarni chuqurroq va puxta o'rganish, talabalarning bilim o'zlashtirishi, mustaqil ishlarining sifatini aniqlash va to'ldirish, mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlar odatda, kichik guruhlarda olib boriladi. Bu mashg'ulotlarda talabalar bilimni chuqurlashtirishga qaratilgan mustaqil ishlash malakasini egallashga;



tarixiy manba, xrestomatiya va tadqiqotlar bilan ishlash, faktlar, ilmiy axborotlar to'plash, ularni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirishga o'rgatadi.

Amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzadan farqlanadigan asosiy me'yorlaridan biri o'quv jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi harakatlarida o'ziga xos xarakter bilan namoyon bo'lishdir. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi. Agar ma'ruzada ilmiy bilimlar asosi bayon qilinadigan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va detallashtiriladi. Eng muhimi, amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini sinash uchun ham xizmat qiladi.

Laboratoriya ishlari – oliy maktabda egallanadigan ijtimoiy-gumanitar, kasbiy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishga xizmat qiladi. O'rganilgan nazariy bilimni amalda. Tajribada sinab ko'rish ko'rish yo'li bilan uni mustahkamlaydi, kasbni egallashga yo'l ochadi. Laboratoriya ishlari tadqiqot xarakteri (tavsifi)ga ega bo'lib, kuzatish, tajribada sinab ko'rish yo'li bilan masala (muammo)ga doir faktlar to'plash, ularni umumlashtirib, nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy tavsifi shundaki, unda talabalar mustaqil ravishda vazifa bajaradilar yoki eksperiment o'tkazadilar. Ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida laboratoriya ishlari talabaga nazariy bilimlarni qo'llash mexanizmini chuqur va ko'rgazmali o'rganish imkonini beradi. Laboratoriya mashg'ulotlari talabada tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini shakllantiradi, fan va texnikaga ijodiy yondashishni ta'minlaydi, eksperimentning umumiy metodikasini egallashga imkon beradi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- laboratoriya mashg'ulotlarini rejalashtira olish va o'tkaza olish;
- laboratoriya mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- fan va ishlab chiqarish bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy jihatdan tayyorlash;
- laboratoriya mashg'ulotlari nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Malakaviy amaliyot – bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo'lib, ilg'or korxonalar, muassasa va tashkilotlarda o'tkaziladi. Malakaviy amaliyot oliy maktabda o'qish jarayonining ishlab chiqarish sharoitida o'tkaziladigan davomi, tarkibiy qismidir. Har bir amaliyotning maqsadi, mazmuni va muddati o'quv rejalari hamda amaliyot dasturlarida belgilanadi. Amaliyot dasturlari tanlangan yo'nalish, mutaxassislikning malakaviy talablari, amaliyot ob'ektlari -korxonalar, muassasasi tomonidan ishlab chiqiladi, rektor tasdiqlaydi. Malakaviy amaliyotni o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasi yaqinida joylashgan ob'ektlar tanlanib, shartnoma tuziladi. Malakaviy



amaliyot tegishli bilimlar asosida xorijiy davlat korxonalarida ham o'tkazish mumkin.

Amaliyot rahbari tajribali professor, dotsent va o'qituvchilardan tayinlanadi. U zaruriy tayyorgarlik ishlarini bajaradi, talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini nazorat etadi, talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, yozma hisobotni kafedra mudiri va dekanatga taqdim etadi. Amaliyot ob'ekti xodimlari shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajaradi.

Talaba malakaviy amaliyot jarayonida: amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni bajarishi, amaliyot ob'ektining ichki tartib-qoidalariga rioya qilishi, bajarilgan ish natijalari uchun javobgarlikni bo'yinga olishi, kundalik daftar yuritishi, amaliyot rahbariga yozma hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi zarur.

Nazorat savollari:

1. Tarix darsi, unga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
2. Tarix fanining ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash omillarini ayting.
3. OTMda tarixdan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish shakllarini izohlang.
4. Ma'ruza va uning asosiy vazifalari, samaradorlik shartlari qanday?
5. Seminar mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
6. Amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlariga qo'yiladigan talablarni ayting.
7. Talabalarning malakaviy amaliyoti qanday tashkil etiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o'qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.
2. Korotkova M. V., Studenikin M.T. Metodika obucheniya istorii v sxemax tablitsax opisaniyax. Prakticheskoe posobie dlya uchiteley. – M., 1997.
3. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi / Darslik. – Toshkent: Alohachi, 2008. – 262 b.
4. Sagdiev A., Fuzailova G., Hasanova M. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008. – B. 37-47.
5. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. (bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: O'zMU - Universitet, 2002. – 190 b.
6. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati // Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU Rizografi, 2014. 6,5 b.t.

4-Mavzu: Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish

Reja:

1. Tarix ta'limida mustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadi va turlari
2. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

***Tayanch tushunchalar:** mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarning turlari, shakllari, namunalar bo'yicha mustaqil ishlar, rekonstruktiv-variantiv, evristik (qisman, ijodiy), ijodiy tadqiqot.*

1. Tarix ta'limidamMustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadi va turlari

Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini talabalar tomonidan mustaqil va ijodiy (yoki professor-o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq) bajarish maqsadiga yo'naltirilgan o'quv faoliyati bo'lib, uning negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quv – biluv faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakl – usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari didaktik maqsadi, mustaqil o'quv faoliyatining darajasi, yakka kishiga yoki guruhga mo'ljallanganligi, axborot manbai, bilim olish metodlari, shakl va bajarish o'rniga ko'ra ham tasniflanadi, farqlanadi.

Mustaqil ish – muayyan mavzuni va fanni butunlay o'rganish jarayoni vaqtida amalga oshiriladi, talabalar muammoli savollarni hal etishlari, ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida olingan bilimlarini mustahkamlashlari talab qilinadi. Mustaqil ish davomida metodik materiallarda belgilangan muammoli savollarni kursantlar mustaqil ravishda hal etadilar. Mavzu bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlarni o'rganib chiqish orqali ishni ma'ruza mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish bilan boshlash zarur, chunki mavzuning mazmunini tashkil etuvchi savollar to'g'risida umumiy tasavvurlarga ega bo'ladilar, so'ng esa mustaqil ish paytida mazkur metodik materiallarda ko'rsatilgan ma'ruza savollarini o'rganib, ularning mazmunini chuqurroq tushunib oladilar.

Mustaqil ish barcha o'quv ishlarining yakunlovchi shaklidir. Mustaqil ta'lim jarayonida u yoki bu fan sohasiga doir axborotlarni to'plash, o'zlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish, ularni mustahkam bilimga, barqaror malaka va ko'nikmalarga aylantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish malakalari zarurligi:

1. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga doir me'yoriy hujjatlarida mustaqil ta'lim, talabalarning mustaqil ishlari o'quv mashg'ulotlarining turlaridan biri, ta'limi olishning muhim shakli, usuli sifatida ko'rsatilgan.

2. Vazirlar Mahkamasi 2001 yil 16 avgustda tasdiqlangan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar bakalavriat ta'lim dasturini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilgan.



Magistratura ta'lim dasturi mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar qatorida: "magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalarga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarni ta'minlashi kerak... Mustaqil tadqiqotchilik faoliyatning amaliy ko'nikmalarini hosil qilish" zarurligi ta'kidlangan, Oliy ta'lim muassasasini bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan davlat standarti umumiy malaka talablaridan biri "yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi hisoblanadi."

3. Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq bakalavriat sva magistratura ta'limi o'quv rejalarida mustaqil ta'lim, mustaqil ishlarga nisbatan ko'proq vaqt (soat) ajratilgan.

4. Oliy ta'limning kasbiy ta'lim dasturlari: kunduzgi, sirtqi, eksternat va masofaviy ta'lim shakllarida o'zlashtirishni mumkinligi nazarda tutilgan (Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, Toshkent, 1988. 88-bet). Shuningdek, oliy ta'lim haqidagi nizomda: "Talabalar bilim egallashi, belgilangan muddatlarda o'quv rejaları va ta'lim standartlarida ko'rsatilgan topshiriqlarning hamma turlarini bajarishi shart" (Me'yoriy hujjatlar, 1-qism, Toshkent, 1988. 90-bet) deyilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limni isloh qilishga doir me'yoriy davlat hujjatlaridan keltirilgan ushbu talablar, fikrlar oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim olishga katta e'tibor berish, talabalarni mustaqil ishlash metodikasi bilan qurollantirish zarurligidan dalolat beradi.

Mustaqil ta'limning turlari:

1. Ma'ruza mavzusi va material bo'yicha mustaqil ishlar.
2. Amaliy mashg'ulotlarga, seminar va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik sohasida mustaqil ishlar.
3. Referatlar, kurs ishlarini yozish bo'yicha o'quv topshiriqlarni bajarish.
4. Nazorat ishlari (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlar) sohasida o'quv topshiriqlarni bajarish.
5. Malakaviy amaliyotlar bilan bog'liq o'quv topshiriqlarini bajarish.
6. Maxsus kursni o'rganish bilan bog'liq mustaqil ishlar: ma'ruza mavzusiga doir adabiyotlarni o'qib, o'rganib, biror masala bo'yicha matn tayyorlash, ma'ruza o'qishga hozirlanish kabilar.
7. Malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash sohasida mustaqil ishlar.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi – bu sirdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu



maqsadga yetish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko'zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi turi. Bunda o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi, talabalardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi turi talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo'lmagan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir. Bu maqsadga talabalardan o'rganilayotgan ob'ektdagi o'zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi tipi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir.

Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan ob'ekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar munosabatlarni o'rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

- *namunalar bo'yicha mustaqil ishlar;*
- *rekonstruktiv-variativ;*
- *evristik (qisman, ijodiy);*
- *ijodiy tadqiqot.*

Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o'stirmaydi.

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi.

Evristik mustaqil ishlar ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir.



Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo'ljallaydi.

Ijodiy tadqiqot ishlari. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Talaba o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o'rin egallaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ishlar deganda shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

Oliy maktab talabasida mustaqil ta'lim olish malaka ko'nikmalarini shakllantirish ishlarini rejali va asta-sekin murakkablashtirish, yuqorilab boradigan bosqichlar (darajalar) shaklida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayon ko'p qavatli binoning yuqori qavatlariga zinapoyalar orqali ketma-ket, izchil chiqib borilgani sinngari sodir bo'ladi. Talabaning mustaqil ta'lim olishi bosqichli (darajali) tashkil etilganda, masalan, quyi kurslarda – *birinchi bosqichida* mustaqil ishlar reproduktiv darajada, ya'ni professor-o'qituvchining topshirig'i va ko'rsatmasiga binoan bajariladi; *ikkinchi bosqichda* - yuqoriroq - mahsuldor darajada masalan, tanlangan mavzu bo'yicha dars ishlanmasi loyihasini tayyorlash kabi mustaqil ishlar shaklida; *uchinchi bosqichda* – yana yuqoriroq – mahsuldor, evristik darajada, qisman ijodiy izlanishni talab etadigan mustaqil ishlar doirasida; va nihoyat *to'rtinchi* – eng yuqori ijodiy xarakterdagi mustaqil ishlar darajasida tashkil etilishi mumkin.

Oliy maktabda talabalarning mustaqil ta'limni rejali va bosqichli tashkil etilishi undan ko'zda tutilgan ta'lim maqsadlarini ro'yobga chiqarishga, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-gumanitar va kasbiy tayyorgarligi darajasini yuqori ko'tarishga, ta'lim-tarbiyaning sammaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'ruza tinglanishi vaqtida undagi ayrim nazariy masalalarni tushunib olish qiyin bo'lishi mumkin. Ma'ruza jarayonida tushunish qiyin bo'lgan, noaniq joylarni belgilab qo'yish, ma'ruzadan keyin mustaqil ishlash, kitob o'qish, alohida suhbatlar, maslahat (konsultatsiya)lar yordamida o'zlashtirishning yuqoriroq doirasida egallash lozim.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- *mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;*



- *mustaqil ravishda o'z bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi;*

- *mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;*
- *mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.*

Oliy maktabdagi o'quv jarayoni **mustaqil tahsilni** tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Talabalarning mustaqil tahsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi sifatida qaraladi.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir. Mustaqil tahsilning vazifalari: *shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy saviyasini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish.*

Mustaqil tahsil bo'yicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida uning rejasi tuziladi.

Rejaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- *rejalashtirilayotgan ishlarning hajmi va oldinma-ketinligi;*
- *ularning bajarilish muddatlari;*
- *mustaqil faoliyatning har bir turiga maqsadli ko'rsatmalar berish.*

Mustaqil tahsil jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil tahsilning asosiy metodi **adabiyotlar ustida individual ishlash**dir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo'lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Shuningdek, mustaqil tahsilga amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiradi.

Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri ularning **muloqotidir**. Mustaqil tahsilning pirovard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o'zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Shunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim metodi bo'lib, unda talabalar mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi.

Nazorat savollari:

1. DTSda talabalarning mustaqil ta'lim olishlariga doir talablarni ayting.
2. Mustaqil ta'lim tushunchasini izohlang.
3. Mustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadini izohlang.
4. Mustaqil ta'lim, uning turlarini ayting.



5. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi / Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 262 b.
2. Asqarova O'M., Xayitboev M., Nishonov M.S. Pedagogika / Darslik. – Toshkent: Talqin, 2008. – 288 b.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha umumiy yo'riqnoma

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar tarix ta'limining turli normativ-huquqiy hujjatlari, tarix o'qituvchisining faoliyat funksiyalari: (*gnostik, loyihalash, konstruksiyalash, diagnostik, prognostik, kommunikativ, ishlab chiqarish-texnologik, tashkilotchilik*) va tarix ta'limi sohasidagi innovatsiyalar bilan tanishadilar va ular asosida amaliy ishlarni bajaradilar. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda kichik guruhlariga bo'lib o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy va xorijiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, internet materiallaridan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

1-amaliy mashg'ulot: Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslari. Oliy ta'lim tarix o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati bosqichlari

Ishning maqsadi: tinglovchilarga tarix ta'limida tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, mustaqil ijod asosida darslarga zamonaviy ta'lim vositalarini joriy etishga, zamonaviy ta'lim vositalari (texnik vositalar, o'quv-uslubiy vositalar, yordamchi vositalar) yordamida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Tarix o'qituvchisining pedagogik innovatsiyasi
2. Tarix o'qituvchisining xorijiy ta'lim tizimi va metodikasi

Kichik guruhlarda ishlash metodiga ko'ra, guruhlariga o'quv topshiriqlar beriladi.

1-topshiriq. Qanday usullar va ularning qaysi shaklda, qanday ta'lim vositalaridan foydalanilsa optimal natijaga olib keladi? Jadvalni to'ldiring. Ro'yxatni muhokama qiling va noto'g'ri deb topilganlarni ro'yxatdan o'chiring.

Metod	Usullar	Vositalar

2-topshiriq. Ta'lim metodlari va usullari

Sagdiev A., Fuzailova G., Hasanova M. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008. – B. 52.

Savol va topshiriqlar

1. Ta'lim vositalarini misollar bilan izohlang. Ta'lim vositalarining tarix ta'limidagi o'rnini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Joyce Appleby, Lynn Hunt, Margaret Jacob. TELLING THE TRUTH ABOUT HISTORY. W.W. Norton & Company. New York - London. 1994.
2. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o'qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.
3. Pathak R.P. Methodology of Yeducational Research. Atlantic. USA. 2008.
4. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.
5. Golish L.V., Xashimova D.P. "Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" treningining o'quv-metodik materiallari. – Toshkent: TDIU, 2014. – 80 b.
6. Новые pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sredney shkole / Pod red. Ye.S. Polat. - M., 1999. - 224 s.
7. Norenkov I.P., Zimin A.M. Informatsionnye texnologii v obrazovanii: Uchebnoe posobie. – M.: Izd. MGTU im. N.Baumana, 2002. –336s.
8. Hamdamov R., Begimqulov U. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
9. Hamdamov R., Begimqulov U. Elektron o'quv uslubiy majmualar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
10. Hamdamov R., Begimqulov U. Elektron universitet: elektron vazirlik, masofaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.

2-amaliy mashg'ulot: Tarix fanlarini o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlari asosida loyihalashtirish. Guruhlarni shakllantirish tamoyillari

Ishning maqsadi: Tinglovchilarga tarix ta'limida tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, mustaqil ijod asosida pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar yordamida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlari
2. Keys-stadi (Case – stadi), hamkorlikda o'qish, loyiha texnologiyalari.
3. Interfaol usullar haqida tushuncha
4. Tarix ta'limiga interfaol usullarni joriy etish

“Interfaol” tushunchasi haqidagi ma'lumotlar aqliy hujum yordamida tahlil etiladi.

1-topshiriq. Kichik guruhlarda ishlash metodiga ko'ra, guruhlariga o'quv topshiriqlar beriladi. Quyida pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv materiallari



tayyorlanadi. Tinglovchilar 4 ta guruhga bo'linganligi sababli guruhlarga quyidagi mavzuda yo'riqnoma matni beriladi:

1-guruhga: “keys-stadi” texnologiyasi bo'yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang;

2-guruhga: “loyiha” texnologiyasi bo'yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang;

3-guruhga: “hamkorlikda o'qish” texnologiyasi bo'yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang;

4-guruhga: “SVOT” texnologiyasi bo'yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang.

Jadvalni to'ldiring: Ro'yxatni muhokama qiling va noto'g'rilarni ro'yxatdan o'chiring.

Interfaol usullar	Shakllar	Vositalar

2-topshiriq. Qanday interfaol ta'lim berish usullarini bilasiz?

7-ta kichik guruhga bo'lingan. Har bir guruh bitta interfaol ta'lim usuli bo'yicha mutaxassis sifatida chiqadi. O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi o'quv mashg'ulotlari mavzulari misolida loyihalar namunalarini ishlab chiqish.

- 1-guruh – toifali jadval
- 2-guruh – pinbord
- 3-guruh – juftlikda o'yla, ishla, fikr almashing
- 4-guruh – Muammoli vazifalar va vaziyatlar usuli
- 5-guruh - konseptual jadval
- 6-guruh – munozara
- 7-guruh - T-jadvali

Guruhlarda ishlashni boshlashdan oldin diqqat bilan guruh topshirig'ini o'qib chiqing, uni bajarish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlang.

Guruxlarda ishlash va taqdimot qilish reglamenti:

1. Guruhlarda topshiriqni bajarish – 20 daqiqa

2. Har bir guruh faoliyati natijasini taqdimoti – 10 daqiqa

Xurmatli trening ishtirokchilari. Ushbu belgilangan reglamentdan chetga chiqmasliklaringizni so'raymiz.

3-topshiriq. O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi o'quv mashg'ulotlari mavzulari misolida loyihalar namunalarini to'ldirish va yangillarini ishlab chiqish.



**“Pinbord” texnikasi bo'yicha topshiriq
Madaniyat tushunchasiga misollar keltiring**

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat

T-jadvali yordamida mustaqil faoliyatni tashkil etish

Buyuk geografik kashfiyotlar	
+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)
xulosa	

Arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatlarini

siyosiy jihatdan		iqtisodiy jihatdan		madaniy – ma'rifiy jihatdan	
afzalligi	Kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa					

Rezyume texnologiyasi yordamida tahlil qiling va qisqa xulosalarni umumlashtiring.

Xonliklar davrida O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

ijtimoiy-siyosiy soha		iqtisodiy soha		madaniy soha	
yutug'i	Kamchiligi	yutug'i	kamchiligi	yutug'i	kamchiligi
Xulosa					

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o'qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.
2. Pathak R.P. Methodology of Yeducational Research. Atlantic. USA. 2008.
3. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.
4. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. - Toshkent: TESIS, 2001. - 38 b.



5. Golish L.V., Xashimova D.P. “Ta’lim jarayonida interfaol ta’lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” treningining o’quv-metodik materiallari. – Toshkent: TDIU, 2014. – 80 b.
6. Ishmuhamedov R. O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati. - Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.
7. Klarin M.V. Interaktivnoe obucheniya-instrument osvoenie novogo opyta // Pedagogika. 2000. № 7 - S. 12-18.
8. Ro’zieva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi. – Toshkent, 2014.
9. Safin D.V., Musina R.G. Ta’lim berish va o’qishning interfaol usullari. O’quv qo’llanma. 1-modul. Interfaol o’qitishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2007.

3-amaliy mashg’ulot: Oliy ta’limda tarix fanlarini o’qitish natijalarini nazorat qilish va baholashning zamonaviy shakl, metod va vositalari

Ishning maqsadi: Tinglovchilarga tarix ta’limida tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, mustaqil ijod asosida pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar yordamida o’quv topshiriqlarini ishlab chiqish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Amaliy mashg’ulot topshiriqlari

1. Pedagogik texnologiya va uning ilmiy aspektlari
2. Keys-stadi (Case – stadi), hamkorlikda o’qish, loyiha texnologiyalari.
3. Interfaol usullar haqida tushuncha
4. Tarix ta’limiga interfaol usullarni joriy etish

“Interfaol” tushunchasi haqidagi ma’lumotlar aqliy hujum yordamida tahlil etiladi.

1-topshiriq. Kichik guruhlarda ishlash metodiga ko’ra, guruhlariga o’quv topshiriqlar beriladi. Quyida pedagogik texnologiyalar yordamida o’quv materiallari tayyorlanadi. Tinglovchilar 4 ta guruhga bo’linganligi sababli guruhlariga quyidagi mavzuda yo’riqnoma matni beriladi:

1-guruhga: “keys-stadi” texnologiyasi bo’yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang;

2-guruhga: “loyiha” texnologiyasi bo’yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang;

3-guruhga: “hamkorlikda o’qish” texnologiyasi bo’yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang;

4-guruhga: “SVOT” texnologiyasi bo’yicha tanlangan mavzuning ishlanmasini tayyorlang.

Jadvalni to’ldiring: Ro’yxatni muhokama qiling va noto’g’rilarni ro’yxatdan o’chiring.



Interfaol usullar	Shakllar	Vositalar

2-topshiriq. Qanday interfaol ta'lim berish usullarini bilasiz?

7-ta kichik guruhga bo'ling. Har bir guruh bitta interfaol ta'lim usuli bo'yicha mutaxassis sifatida chiqadi. O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi o'quv mashg'ulotlari mavzulari misolida loyihalar namunalari ishlab chiqish.

- 1-guruh – toifali jadval
- 2-guruh – pinbord
- 3-guruh – juftlikda o'yla, ishla, fikr almashing
- 4-guruh – Muammoli vazifalar va vaziyatlar usuli
- 5-guruh - konseptual jadval
- 6-guruh – munozara
- 7-guruh - T-jadvali

Guruhlarda ishlashni boshlashdan oldin diqqat bilan guruh topshirig'ini o'qib chiqing, uni bajarish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlang.

Guruxlarda ishlash va taqdimot qilish reglamenti:

1. Guruhlarda topshiriqni bajarish – 20 daqiqa
2. Har bir guruh faoliyati natijasini taqdimoti – 10 daqiqa

Xurmatli trening ishtirokchilari. Ushbu belgilangan reglamentdan chetga chiqmasliklaringizni so'raymiz.

3-topshiriq. O'zbekiston tarixi va Jahon tarixi o'quv mashg'ulotlari mavzulari misolida loyihalar namunalari to'ldirish va yangillarini ishlab chiqish.

“Pinbord” texnikasi bo'yicha topshiriq

Madaniyat tushunchasiga misollar keltiring

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat

T-jadvali yordamida mustaqil faoliyatni tashkil etish

Buyuk geografik kashfiyotlar	
+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)
xulosa	



Arablar tomonidan Movarounnahrning bosib olinishi oqibatlari

siyosiy jihatdan		iqtisodiy jihatdan		madaniy – ma'rifiy jihatdan	
afzalligi	Kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa					

Rezyume texnologiyasi yordamida tahlil qiling va qisqa xulosalarni umumlashtiring.

Xonliklar davrida O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti

ijtimoiy-siyosiy soha		iqtisodiy soha		madaniy soha	
yutug'i	Kamchiligi	yutug'i	kamchiligi	yutug'i	kamchiligi
Xulosa					

Foydalanilgan adabiyotlar:

10. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o'qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.
11. Pathak R.P. Methodology of Yeducational Research. Atlantic. USA. 2008.
12. Daniel J. Tew. Pedagogy of Teaching History: Comparing the Chronologic and Thematic Approaches. USA. Western Oregon University, 2014.
13. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspress qo'llanma. - Toshkent: TESIS, 2001. - 38 b.
14. Golish L.V., Xashimova D.P. "Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" treningining o'quv-metodik materiallari. – Toshkent: TDIU, 2014. – 80 b.
15. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.
16. Klarin M.V. Interaktivnoe obucheniya-instrument osvoenie novogo opyta // Pedagogika. 2000. № 7 - S. 12-18.
17. Ro'zieva D. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. – Toshkent, 2014.
18. Safin D.V., Musina R.G. Ta'lim berish va o'qishning interfaol usullari. O'quv qo'llanma. 1-modul. Interfaol o'qitishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2007.



4-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy yondashuvlar asosida talabalar mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish

Ishning maqsadi: Tinglovchilarga tarix ta'limida tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyati asosida mustaqil ta'limni tashkil etish, uni tashkil etish shakllantirish va rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Mustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadi va turlari
2. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Topshiriq. Mustaqil ta'limning turlari bo'yicha mavzularni tayyorlash:

- Ma'ruza mavzusi va materiali bo'yicha mustaqil ishlar.
- Amaliy mashg'ulotlarga, seminar va laboratoriya ishlariga tayyorgarlik sohasida mustaqil ishlar.
 - Referatlar, kurs ishlarini yozish bo'yicha o'quv topshiriqlarni bajarish.
 - Nazorat ishlari (joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlar) sohasida o'quv topshiriqlarni bajarish.
 - Malakaviy amaliyotlar bilan bog'liq o'quv topshiriqlarini bajarish.
 - Maxsus kursni o'rganish bilan bog'liq mustaqil ishlar: ma'ruza mavzusiga doir adabiyotlarni o'qib, o'rganib, biror masala bo'yicha matn tayyorlash, ma'ruza o'qishga hozirlanish kabilar.
 - Malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash sohasida mustaqil ishlar.

V. KEYSLAR BANKI

“**Keys-stadi**” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys-stadi” metodini amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalga qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish



TEXNOLGIYANING BOSQICHLARI



1-Keys. Tarix o'qitishning metodlari va klassifikatsiyasi

Tarix o'qitishning metodlari va ularning klassifikatsiyasi

Mavzu bo'yicha o'quv topshiriqlar:

I-guruh

Savol: Og'zaki bayon metodi mazmunini ayting

- 1) Og'zaki bayon metodi va uning usullarini yoritib bering;
- 2) Og'zaki bayon metodi vositalarini ko'rsatib bering.

II-guruh

Savol: Ko'rsatmali metod mazmunini ayting

- 1) Ko'rsatmali metod va uning usullarini yoritib bering;
- 2) Ko'rsatmali metod vositalarini ko'rsatib bering.

III-guruh

Savol: Amaliy metod mazmunini ayting

- 1) Amaliy metod va uning usullarini yoritib bering;
- 2) Amaliy metod vositalarini ko'rsatib bering.



Yuqoridagi sxemadagi har bir metodga tanlangan mavzu bo'yicha misol keltiring.

2-Keys. Tarix darslarida ta'lim vositalaridan foydalanish

O'zbekiston va Jahon tarixi bo'yicha seminar darslari uchun grafik organayzerlardan foydalanilgan holda o'quv topshirig'ini ishlab chiqing.

1-guruh - toifali jadval, konseptual jadval uchun o'quv topshirig'ini ishlab chiqish

2-guruh – insert, blis-o'yinli texnologiyalar uchun jadvalli o'quv topshirig'ini tayyorlash

3-guruh – T-sxema, Rezyume texnologiyasi bo'yicha o'quv topshirig'ini tayyorlash

3-Keys. OTMda tarix o'qitishni tashkil etish shakllari. Ma'ruza, seminar darslariga qo'yiladigan talablar masalalariga topshiriqlar

1-topshiriq

1. Kichik guruhlar quyidagi jadvaldagi tarix darslarini turiga qarab, darsda foydalaniladigan metod, usul va vositalarni aniqlang.

Metod	Usullar	Vositalar

- 1-guruh Ma'ruza darslari
- 2-guruh Seminar mashg'uloti
- 3-guruh Amaliy mashg'ulot
- 4-guruh Laboratoriya mashg'uloti

2-topshiriq

2. Darsni tashkil etuvchi bosqichlarini va ularga ajratilgan vaqt taqsimotini ko'rsating.



Darsni tashkil etuvchi unsurlarning vaqt taqsimotini ko'rsatadilar. Masalan:

- Tashkiliy qism va takrorlash – 10%
- Yangi mavzuni tushuntirish – 50%
- Mavzuni mustahkamlash – 30%
- Xulosa. Talabalar bilimini baholash -10%





VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
innovatsiya	yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati (inglizcha innovatsiya –kiritilgan yangilik, ixtiro). Ilmiy texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va doiralarda qo'llanishini aks etgiradi.	Innovation is the creation of better or more effective products, processes, services, technologies, or ideas that are accepted by markets, governments, and society. Innovation differs from invention in that innovation refers to the use of a new idea or method, whereas invention refers more directly to the creation of the idea or method itself.
texnologiya	yunoncha so'z – «texno» - san'at va «logos» - o'rganish. Materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berishi va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandır. Muayyan ishlab chiqarish sohasidagi usullar va jarayonlar majmuasi. Informatikada turli tuman axborot texnologiyalari ishlatiladi, birinchi navbatda, kompyuter texnologiyalari	Is the making, usage and knowledge of tools, techniques, crafts, systems or methods of organization in order to solve a problem or serve some purpose. The word technology comes from greek τεχνολογία (technología); from τέχνη (téchnē), meaning "art, skill, craft", and -λογία (-logía), meaning "study of-"
metod	yunoncha so'zdan olingan bo'lib, “metodos” - biror narsaga yo'l ma'nosini anglatadi. Metod-tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig'indisidan iborat.	a method is associated with. Methods define the behavior to be exhibited by instances of the associated class at program runtime. Methods have the special property that at runtime, they



		<p>have access to data stored in an instance of the class they are associated with and are thereby able to control the state of the instance. The association between class and method is called binding. A method associated with a class is said to be bound to the class.</p>
<p>axborot texnologiyalari</p>	<p>axborotni yig'ish, saqlash, uzatish, o'zgartirish, qayta ishlash usul va vositalari yig'indisidan iborat</p>	<p>Practical part of scientific area of computer science representing set of means, ways, methods of the automated tax, processing, storage, transfer, use, production of the information for reception certain (determined), obviously expected, results.</p>
<p>hamkorlikda o'qitish</p>	<p>Mashg'ulotlar jarayonida talabalar bilan axborot, shaxsiy va kasbiy tajribalarni almashish asosidagi guruhviy o'qitish shakli</p>	<p>Information sharing, personal and professional experiences among the students in the process of group face-to-face classes</p>
<p>Dars ishlanmasi Lesson planning</p>	<p>Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat</p>	<p>An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence</p>
<p>Dramatik o'yinlar Dramatic games</p>	<p>Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar</p>	<p>Games intended for solving psychological and social issues</p>
<p>Innovatsion ta'lim Innovative education</p>	<p>Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor,</p>	<p>Education that allows to develop skills and qualities of a student</p>



	qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim	
Interfaol ta'lim Interactive aducation	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim	The yeducation based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
“Keys-stadi” texnologiyasi “Case study” technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in yearching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
Muammoli vaziyat Dilemma	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and yeffective accomplishment
Muammoli ma'ruza A problem lecture	O'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faolliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza	A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma
Muammoli ta'lim texnologiyalari Problem yeducation technologies	talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalari	The technologies that develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions



<p>Mustaqil ta'lim</p> <p>Independent learning</p>	<p>OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim</p>	<p>education aimed at preparing the students of higher yeducational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs</p>
<p>Ta'lim jarayonini loyihalashtirish</p> <p>Projecting the yeducational process</p>	<p>O'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyati</p>	<p>A targeted yeducational activity organized in order to develop students' skills in carrying out independent actions to plan and organize activites and its assessment</p>
<p>Ta'lim tizimini modernizatsiyalash</p> <p>Modernizati on of yeducational system</p>	<p>Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi</p>	<p>Improving or developing an yexisting mechanism in order to provide sustainable development of continuous yeducational system that meets students' needs and interests as well as society's social, yeconomic and cultural and country's skilled personal needs</p>
<p>Texnologik xarita</p> <p>Technologica l map</p>	<p>Ta'lim jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat</p>	<p>A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead yeducational process or those who carry out technical services to a certain object</p>



Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim Student-centered yeduction	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
O'quv topshiriqlari Study assignments	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta'limiy vazifalar yig'indisi	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject



VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ - huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T., 2018.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 20 iyuldagi PQ-3876-son [Qarori-www.lex.uz](http://www.lex.uz)
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 25 iyuldagi №283-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish)" tartibi.

II. Rahbariy adabiyotlar

7. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 48 b
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
12. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2020 yil, 28 fevral.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar

bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 20 fevral, № 37.

17. O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.07.2020 y., 06/20/6017/1021-son) [www. lex.uz](http://www.lex.uz).

18. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2020 y., 06/20/6013/1002-son). www. lex.uz.

19. «Har bir oila — tadbirkor» dasturini hamda Namangan viloyatidagi kichik sanoat zonalarini rivojlantirishni moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.07.2020 y., 07/20/4782/1067-son). www. lex.uz.

20. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.

21. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

22. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

23. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

III. Maxsus adabiyotlar

24. Bhuvan Garg. Teaching of history (Tarixni o'qitish). India. New Delhi. Rajat publications, 2007.

25. Joyce Appleby, Lynn Hunt, Margaret Jacob. TELLING THE TRUTH ABOUT HISTORY. W.W. Norton & Company. New York - London. 1994.

26. Ganieva M., Fayzullaev D. Zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik texnologiyalari to'plami. - T.: Iqtisodiyot, 2013. – 95 b.

27. Ganieva M., Fayzullaev D. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.

28. Ganieva M., Fayzullaev D. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash pedagogik texnologiyalar to'plami. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 44 b.

29. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. O'qitishning loyihaviy texnologiyasi to'plami. Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2013. – 83 b.

30. Golish L.V. Faol o'qitish usullari: mazmun tanlash, amalga oshirish. Ekspres qo'llanma. - Toshkent: TESIS, 2001. - 38 b.

31. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma // Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. - 206 b.



32. Golish L.V., Xashimova D.P. "Ta'lim jarayonida interfaol ta'lim uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish" treningining o'quv-metodik materiallari. – Toshkent: TDIU, 2014. – 80 b.
33. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 279 b.
34. Korotkova M. V., Studenikin M.T. Metodika obucheniya istorii v sxemax tablitsax opisaniiyax. Prakticheskoe posobie dlya uchiteley. – M., 1997.
35. Korotkova M.V., Studenikin M.T. Metodika obucheniya istorii. — M., 1993.
36. Mansurov O., Raxmatullaeva O. Tarix o'qitish metodikasi (Tarix fakulteti bakalavriat talabalar uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2019. - 143 b.
37. Norenkov I.P., Zimin A.M. Informatsionnye tehnologii v obrazovanii: Uchebnoe posobie. – M.: Izd. MGTU im. N.Baumana, 2002. - 336 s.
38. Sagdiev A., Fuzailova G., Hasanova M. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2008. – 119 b.
39. Sa'diev A. O'zbekiston xalqlar tarixini o'qitish. - Toshkent, 1993. – 98 b .
40. Toshpo'latov T., G'afforov Ya. Tarix o'qitish metodikasi. (Bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: O'zMU - Universitet, 2002. – 190 b.
41. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - Toshkent, 2007.
42. Xodiev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboev O.K. Keys-stadi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma /"Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - Toshkent: TDIU, 2009. – 150 b.
43. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati // Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU Rizografi, 2014. 6,5 b.t.
44. Lebedev O.E. Uchimsya vmeste reshat problemy. Ch.1: Metod. Pos. dlya uchiteley. – SPb.: Izd. Obrazovanie – Kultura, 2004. – 80 s.
45. Liymets X.Y. Gruppovaya rabota na uroke. — M., 1995.
46. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2010. – 686 b.

IV. Internet saytlar

47. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
48. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
49. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
50. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
51. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.